

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK TILI YO'NALISHI
4-KURS 403-GURUH TALABASI**

**SULTONXO'JAYEVA SHAHNOZA
MURODILLA QIZINING**

BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN

CHO'LPON HIKOYALARIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI

mavzuidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

**D.Tojiboyeva,
katta o'qituvchi**

Namangan – 2015

CHOLPON HIKOYALARIDA OBRAZ YARATISH MAHORATI

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1. Mavzuning dolzarbligi.....	3
2. Tadqiqot ob'yekti va uning o'rganilishi.....	4
3. Bitiruv - malakaviy ishining maqsad va vazifalari.....	4
4. Bitiruv - malakaviy ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.....	5
5. Ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyati.....	5
6. Bitiruv - malakaviy ishining tuzilishi.....	5
I bob. XX asr boshlari o'zbek adabiyotida nasr va uning ifodasi.....	6-27
1. I. A. Karimov asarlarida adabiyotshinoslik va badiiy adabiyotga e'tibor masalasi.....	6-10
2. O'zbek adabiyotida hikoya janri va kitobxon masalasi.....	11-15
3. O'zbek adabiyotida Cho'lpon ijodining o'rni.....	15-27
II bob. Cho'lponning obraz yaratish mahorati.....	28 - 60
1. Cho'lpon hikoyalarida ayol obrazi ifodasi.....	28-38
2. Cho'lpon hikoyalarida inson shaxsi va psixologiyasi talqini.....	39-49
3. Cho'lpon hikoyalarida mavzu va g'oya uyg'unligi.....	49-52
XULOSA	53-54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	55-58

Kirish

Mavzuning dolzarbligi

O'zbekiston mustaqillikka erishgach xalqimizning ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayotida yangi bir davr boshlandi, ma'naviyat masalalariga e'tibor yanada kuchaydi. Yurtboshimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, ma'naviyat, "doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatsiz yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan talablar ham muttasil paydo bo'laveradi". Ana shu talablar adabiy - badiiy jabhada ham yangicha badiiy tafakkur va tamoyillarni zarur etib qo'ydi. Vaqt o'tgani sari, o'qish-o'rganish, jahon va turli xalqlar adabiyotidagi poetik janr imkoniyatlardan boxabarlik oqibatida o'zbek adabiyotida ham sifat o'zgarishlari yuz berdi. O'zbek adabiyotining xazinasini obrazlar va shakllar bilan boyidi. Mazmun jihatdan esa har qanday insonning azaliy va abadiy orzusi bo'lgan ruh ozodligi, ijtimoiy erk his-tuyg'ulari san'atkorlar ijodining tub mohiyatini tashkil qildi. "Vatanimiz ozodligiga erishish, hech kimga tobe va qaram bo'lmasdan, o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, yurtimiz boyliglariga, uning tabiiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatiga ega bo'lish, bir so'z bilan aytganda, ham siyosiy, ham iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlash yo'lida xalqimiz qanday og'ir va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgani beixtiyor ko'z o'ngimizdan o'tadi". Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti bu shunchaki nisbiy olingan xronologik davr emas. Istiqlol adabiyoti tub sifat o'zgarishlarini boshidan kechirgan, o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tgan va alohida belgilariga ega bo'lgan badiiy-estetik hodisadir. U oxirgi yillarda birdaniga shakllanib qolgan emas, balki ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan milliy mumtoz adabiyotimizning davomi sifatida shakllangan. O'zbek adabiyotining bir qismi bo'lgan jadid davri adabiyotiga bo'lgan e'tibor juda quvonarli holdir. Bu davrning zabardast vakillaridan bo'lgan Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cno'lponning ijodi o'rganilishimiz zarur bolgan alohida bir maktabdir. Cno'lpon hikoyalarida yaratilgan obrazlarning tadqiq etilishi adabiyotshunoslik oldidagi o'rganilishi zarur bo'lgan dolzarb masaladir.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari

Bitiruv - malakaviy ishini bajarishda quyidagi maqsad va vazifalar amalga shirildi:

- XX asr boshlari o'zbek adabiyotida nasr va uning ifodasi;
- Karimov asarlarida adabiyotshinoslik va badiiy adabiyotga e'tibor masalasi;
- O'zbek adabiyotida hikoya janri va kitobxon masalasi;
- O'zbek adabiyotida Cho'lpon ijodining o'rni;
- Cho'lponning obraz yaratish mahorati;
- Cho'lpon hikoyalarida ayol obrazi ifodasi;
- Cho'lpon hikoyalarida inson shaxsi va psixologiyasi talqini;
- Cho'lpon hikoyalarida mavzu va g'oya uyg'unligi;

Bitiruv – malakaviy ishi o'rganilishi darajasining qiyosiy tahlili

Cho'lpon ijodi ko'plab olimlar va ijodkorlar tomonidan o'rganilgan va munosabat bildirilgan. Bu o'rinda O. Sharafiddinov, B. Nazarov, N. Karimov, E. Karimov, D. Quronov kabi olimlarning kitoblari va maqolalarini eslatib o'tish joizdir.

Bitiruv - malakaviy ishining ilmiy yangiligi

Bu mavzu yuqorida ta'kidlaganimizdek ko'pchilik olimlar va ijodkorlar tomonidan o'rganilgan va o'rganilmoqda. Bitiruv - malakaviy ishining mavzusida₄

Cholpon hikoyalarida obraz yaratish mahorati organilmoqda. Ko'plab olimlar tomonidan yozuvchining asaplari tahlil etilgan. Ammo hikoyalari tahlili ifodasi kitobxon uchun yangilikdir. Bu ijodkorning pomanchilikdagi faoliyati haqida fikr - mulohazalar bildirilgan. Lekin hikoyachilikdagi faoliyatini tadqiq va tahlil etish bu ishning ilmiy yangiligidir

Tadqiqot ob'yekti va predmeti

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Cho'lponning 4 jildlik asaplari ob'yek qilib olindi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati

Bitiruv - malakaviy ishining mavzusida Cholponning hikoya janridagi obraz yaratish mahorati talqini tadqiq etildi. Bu ijodkorning hikoyachilikdagi faoliyati haqida fikr - mulohazalar bildirilishi, hikoyachilikdagi faoliyatini tadqiq va tahlil etish bu kungi adabiy jarayon uchun ahamiyatlidir.

Ishning hajmi va tuzilishi

Bitiruv - malakaviy ishi kirish, ikki bob, oltita fasl, xulosa qismi va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I bob . XX asr o'zbek adabiyotida nasr va uning shakllanishi.

1. 1. A. Karimov asarlarida adabiyotshinoslik ba badiiy adabiyotga e'tibor masalasi

Mustaqil O'zbekiston ozod va erkin rivojlanish yo'liga chiqishi bilanoq, ya'ni 1989 yilning 21 oktyabrida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Shu asosda barcha majlislar, anjumanlar, ta'lim jarayoni va boshqa tadbirlar o'zbek tilida yuritila boshlandi. Bugun ilmiy va ilmiy - ommabop adabiyot asosan o'zbek tilida chop etilmoqda. O'zbekiston turkiy tillar oilasiga kirib, so'zlashuvchilar soni jihatidan 3 - o'rinda turadi (turk, ozarbayjon, o'zbek). Hozirgacha o'rganilgan manbalarga ko'ra, u 1,5 ming yillik tarixga ega. O'zbek tili jahondagi eng boy va rivojlangan tillardan biridir. Bu tilning shakllanishida Alisher Navoiyning xizmati katta. Prezidentimizning "Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo, insonni tushunish, anglash kerak", degan so'zlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiyotning asosiy tasvir obyekti - inson. O'zbek millatining qon-qoniga adabiyotga oshuftalik hissi singib ketgan. Ona zaminimizda yaratilgan ko'plab asarlar jahon adabiyoti durdonalari safidan mustahkam o'rin egallab ulgurgan. O'zbek adabiyotiga qiziqish chet el adabiyotshunoslari toimonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlarning tug'ilishiga sabab bo'lgan. Yurtboshimiz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab adabiyot ahliga har tomonlama yordam ko'rsatish, ijod erkinligini ta'minlash, badiiy adabiyotlar nashrini ko'paytirish borasida O'zbekiston hech qaysi davlatdan ortda qolmasligi masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Eng muhimi, milliy adabiyotimizning ertangi kuni, uning kelajakdagi rivoji ma'naviyat sohasidagi ustuvor vazifa ekanini alohida uqtirmoqda. "Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa - millat yashaydi." Adabiyotni ma'naviyat xazinasi deb ta'riflashadi. Darhaqiqat, uning bag'rida hozirga qadar insoniyat ardoqlab kelayotgan eng tansiq

hislar, latif tuyg'ular - insonparvarlik, adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik mehr va muruvvat, sevgi va muhabbat, go'zallikka tashnalik singari o'lmas insoniy tuyg'ular jamuljamdir. Adabiyotga oshnoi tutingan odam qalbiga bu hislar ko'chib o'tishi, uni hazrati insonga aylantirishi, hayotiga nur olinib kirib, turmushini turfa mazmun bilan boyitishi aniq. Yurtboshimiz shu jihatlarni hisobga olib "Eng buyuk jasorat - ma'naviy jasoratdir," -deya ta'kidlagandilar. Hozirgi kunda adabiyot va ijod ahli zimmasidagi mas'uliyat yana-da ortsda ortdiki, kamaygani yo'q. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bu muhim masalani quyidagicha ifoda etadi: "Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatni ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulik, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni, yozuvchi: "Ey odamzod, ko'zingni och, sen nima uchun yashayapsan, inson degan yuksak nomga munosib bo'lish uchun nima qilyapsan?" degan savollarni kitobxon oldida, jamiyat oldida qat'iy qilib qo'ya olsagina, o'ylaymanki, o'zining insoniy va ijodiy burchini bajargan bo'ladi." Ijodkor zamonaning o'tkinchi ekinlariga berilmay, hayotda yuz berayotgan voqealarning tub zahiriga nazar tashlashi, mana shu chuqurlikda yotgan asl sabab-mohiyatni ko'rishi va uni mukammal obrazlar hamda vositalar orqali badiiy hodisaga aylantira bilishi lozim.

Adabiyotshunoslik fanida "abadiy muammolar" degan tushuncha mavjud. Bu shunday muammolarki, zamonlar o'tishi, bir-ikki davr kishilarining sa'y-harakatlari bilan ular yechilib, yo'q bo'lib ketmaydi. To odamzod bor ekan, bu muammolar unga doimiy va ajralmas hamroh bo'lib qolaveradi. Odamzodni qiziqtiraveradi, o'ylantiraveradi, qiynayveradi. Muhabbat va nafrat, adolat va adolatsizlik, imonlilik va nafsga qullik, haqiqat va yolg'on, mardlik va qo'rqqoqlik, sadoqat va sotqinlik, vatanparvarlik tuyg'ularini o'z ichiga qamragan, abadiy muammolarni yoritgan asarlarga umrboqiylik kasb etadi. Badiiy asarlar insonni boyitib, tetiklashtirib, ma'naviy qashshoqlashishdan asraydi. Odamning moddiy

boyliklari ko'payishi uni o'z-o'zidan ma'naviy boy qilib qo'ymaydi. Inson och-yupun qolmaslik to'g'risda qanchalik o'ylasa, o'zini ma'naviy yuksaltirish to'g'risida undan-da ko'proq jon kuydirishi kerak bo'ladi.

Ma'naviy yuksalishning eng samarali yo'llaridan biri esa kitobga oshno tutinish, jumladan, adabiy asarlar mutolaasiga ixlos qo'yishdir. Ma'lumki, istiqlol yillarida hayotimizning barcha sohalari qatori milliy adabiyotimiz ham tom ma'noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan olib borilayotgan davlat siyosatida ma'naviyat masalasiga eng muhim va ustuvor yo'nalishi sifatida katta ahamiyat berib kelinayotgani bu borada hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbarining "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli risolalarida ma'naviyat, uning ajralmas qismi bo'lgan badiiy adabiyotga bo'lgan yuksak e'tiborning yana bir amaliy ifodasini ko'rish mumkin. Unda adabiyotimizning bugungi kuni va ertagi istiqboli, ijodkorlar oldida turgan muhim vazifalar haqida ijodkorning fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy burchi xususida atroflicha fikr yuritiladi. Millatimizning ona tilimizni xalqimizning azaliy qadriyatlarini kelgusi avlodlarga yetkazishda adabiyotning o'rni va ahamiyati beqiyos ekaniga jiddiy urg'u beriladi. Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibor ekani, binobarin, adabiyotimiz rivoji uchun vafaqat yozuvchi va shoirlar, balki butun jamiyat mas'ul ekani alohida ta'kitlanadi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi haqida gapirganda, tabiiyki xalqimiz ma'naviyatining milliy tafakkurimizning ajralmas qismi bo'lgan, kerak bo'lsa, uning o'zagini tashkil etadigan ona tilimizni, boy tarix va qadimiy an'analarga ega adabiyotimizni asrab - avaylab, rivojlantirib kelayotgan zahmatkash insonlar, ularning og'ir va mas'uliyatli mehnati barchamizning ko'z oldimizdan o'tadi. Biz shoir deganda, avvalo Alisher Navoiydek benazir zotlarni, yozuvchi deganda, Abdulla Qodiriy, Oybek singari o'z xalqi uchun nafaqat noyob iste'dodi, ayni paytda butun hayotini bag'ishlagan buyuk va mo'tabar insonlarni tasavvur etamiz. Bir so'z bilan

aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o'zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyandalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch, hurmat-e'tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Hech shubhasiz, ziyolilarning ilg'or qismi bo'lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o'rni va ta'siri beqiyosdir. Eng muhimi, yozuvchilarimiz o'tmish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan, o'z ijodiga, qalb amri bilan tanlagan kasbiga sodiq qolib, milliy o'zligimizni anglash, xalqimiz ongu tafakkurini o'zgartirish, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash va yuksaltirish yo'lida xizmat qilib kelayotganini ta'kidlash har tomonlama to'g'ri bo'ladi. Shaxsan men shoir va adiblarni doimo jamiyatning oldingi saflarida yuradigan, hayotni kuzatib, odamlarning yuragida, dunyoqarashida bo'layotgan o'zgarishlarni hammadan avval sezib, ularni ta'sirchan obrazlar, yorqin badiiy bo'yoqlar orqali mahorat bilan yoritib bera oladigan, el-yurt uchun kuyinib yashaydigan fidoyi insonlar, deb bilaman.

Bugungi kunning eng dolzarb muammosi - bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat. Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishini isbotlamoqda, deb aytish uchun bugun barcha asoslarimiz bor. Birinchi navbatda iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo'lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o'z ifodasini topgan pragmatik iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohotchi vazifasini o'z zimmasiga olishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, islohotlarni bosqichma-bosqich va vazminlik bilan amalga oshirish kabi tamoyillar ayniqsa dunyoda avj olib borayotgan moliyaviy va iqtisodiy inqiroz,

9

sharoitida o'zining dolzarbligi va hayotiyligini yana bir bor ko'rsatmoqda. Bu masalalarni hal etishda ham shubhasiz ijodkorlarning o'ziga xos o'rni mavjud - deb, o'ylayman. Chunki mamlakatni bu to'siqdan o'tkazishda, xalq ongiga bu davrning sabablarini va chiqish yo'llarini tushuntirishda ziyolilarning roli kattadir.

O'zbekisto Respublikasi mustaqillikka erishganda so'ng xalq og'zaki ijodida milliy qadriyatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida munosabatda bo'la boshlandi. Mustaqillik zudlik bilan milliy mafkura asoslarini yaratish vazifasini kun tartibiga qo'ydi. Ayniqsa, prezident I. A. Karimovning 1997 yil 31 avgust kuni Oliy majlis 1 - chaqiriq IX sessiyasida so'zlagan "Barkamol avlod - O'zbekiston kelajagining poydevori" mavzusidagi nutqida og'zaki ijod asarlarida milliy mafkura tamoyillari singdirilgan ma'naviy qadriyatlar sifatida munosabatda bo'lish masalasiga e'tibor berildi. 1997 yil oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" ni qabul qildi. Mazkur dasturda ham xalq og'zaki ijodi namunalari yosh avlodni milliy mafkura asosida tarbiyalashning asosiy manbalaridan biri sifatida baholandi. Bu dasturning maqsadi O'zbekistonda uzluksiz ta'limning yangi tizimi orqali XXI asr avlodini shakllantirishning shart - sharoitlarini yaratishdan iborat. Mamlakatda milliy ta'lim - tarbiya tizimini mustahkmlash zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

I. 2 . O'zbek adabiyotida hikoya janri va kitobxon masalasi.

Inson cheksiz koinotga hayrat bilan qaraydi, muhabbatdlan mast yuradi, xiyonatdan azob chekadi, tirikchilik tashvishlariga ko'miladi, hayot va o'lim mohiyatiga yetishni istaydi. Badiiy adabiyotda inson tabiati va ruhiyatiga tegishli bunday azaliy va adabiy kayfiyat mavzulari epik turning eng kichik, mo"jaz janri hikoyada mo"jizaviy tarzda , o'ziga xos ravishda aks ettirilishi lozim. Hikoya janri hajman ixchpmli, shakl va mazmun, kompozitsion qurilishi, til, uslub va boshqa poetik unsurlar originalligi bilan g'oyaviy -emotsional qiymat kasb etadi. Unda¹⁰

qahramonlar tayyor holda sahnaga ciqishi ham, voqelik tasviri jarayonida yaxlit obraz - xarakterga aylanishi ham mumkin. Bu jihat hikoyanavisning tasvir uslubiga, badiiy niyati, aniqrog'i, estetik idealiga bog'liq. Bu kichik epik janrning poetik imkoniyatlari kattadir.

Hikoya uchun voqeani quruqdan - quruq so'zlab berish emas, balki obrazlar, ramzlar, badiiy detallar vositasida xarakter yaratish muhimdir. Hikoya - inson tafakkuriga bir zarb bilan muhrlanadigan, go'zal poetik shakl qurilishiga ega adabiy hodisa sanaladi. Hikoya bamisoli o'z o'rnida topib aytilgan qanotli obraz, frazeologik birlik, bir gapga joylangan hikmat.

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida yuzlab epik asarlar - roman, qissa va hikoyalar yozildi. Ayniqsa, o'tgan yuzyillikda yozilgan hikoyalarning hajmi ham, son - sanog'i ham ko'p. Biroq adabiyot tarixida abadiy qoladigan, o'quvchiga zavq, huzur bag'ishlab, hayot mazmuni, insonning sirli dunyosi xuusida tafakkurga da'vat qiladigan nasriy asarlar juda ko'p emas. Jahon adabiy durdonalariga tenglashadigan, asrlardan asrlarga o'tadigan hikoyalar har doim ham yozilgan emas. XX asr o'zbek adabiyotida asosan hikoyanavis bo'lib tanilganlar bor.

Ma'lumki Abdulla Qodiriy o'zbek romanchiligiga asos soldi., uning ikki romani o'tgan asr nasrimiz tarixida ulkan adabiy hodisa bo'ldi. Yozuvchi hikoya janrida ham san'atkorona qalam tebratdi. Uning "Uloqda " hikoyasi adibning voqelikni san'atkorona tasvirlashning realistik tamoyili tomon yuz burishi bo'ldi. An'anaviy mumtoz tafakkurning bayon usuli bu hikoyadan keyin yangilandi, ya'ni realistik pafos kasb etdi. Aslida 20 - 30 yillarda hikoya yozgan havaskorlar ko'p edi. Yozganlari vaqtli matbuotda bosildi, kitob bo'lib ham chiqdi. Biroq aksariyat hikoyalar, garchand mavzulari davrning mafkuraviy talabiga, zamonaviylikka mos bo'lsa-da, insonning abadiy his - tuyg'ularidan yiroq, hatto azaliy e'tiqodiy tushunchalarni tahqirleydigan, inson ko'ngil olamiga botmaydigan shunchaki sxematik voqeanomalar inshosi edi.

Abdulla Qodiriy esa bu davrda hikoya janrining imkoniyatlari cheksizligini, tasvirdagi aniqlik va hayotiylikni o'z hikoyalarida ko'rsatib berdi. Abdulla Qahhor esa bu janrning ustasi sifatida o'zbek adabiyotida ko'zga tashlandi. Hikoya janrida o'ziga xos maktab yaratdi. Yozuvchining o'tmish va zamonaviy mavzuda yozgan hikoyalarida realistik uslubning ustunligi, qahramonlar xarakterining yorqinligi har qanday kitobxonni e'tiborsiz qoldirmadi. G'afur G'ulom, Said Ahmad, Mirkarim Osimlar bu janr estafetasini davom ettirdilar.

Ustozlar izidan esa iqtidorli shogirdlar qadam bosdilar. 60 - yillarda Shukur Xolmirzaev, O'lmas Umarbekov. O'tkir Hoshimov, Uchqun Nazarov, Ne'mat Aminov va boshqa yozuvchilar o'zidan avvalgi adiblar an'analari davom ettirdilar. Ayni choqda hikoyachilikda yangilikka, originallikka intildilar. Tohir Malik va Hojiakbar Shayxovlar yozgan hikoyalar o'tgan yuzyillarda o'zbek adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdi. Ularning fantastik hikoyalari o'quvchilar tasavvuriga erk, badiiy tafakkuriga kuch berdi. Bu davr hikoyanavislari orasida Shukur Xolmirzaev alohida ajralib turadi. Voqelikka ortiqcha aralashmay, qahramonlarni yetaklamasdan xolis turib tasvirlash unga xos. Ayniqsa yozuvchi asr oxirida qalamini ancha erkin qo'ydi va "Ozodlik", "Bulut to'sgan oy", "O'zbek bobo" kabi hajman yirik hikoyalarni yozdi. Tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik, jamiyat hayotidagi talato'plar va inson ruhiyatining sirli qirralarini mahorat bilan tasvirladi. Bunday asarlar adabiyotshunoslik ilmiga yangi nazariy fikrlar ham berishi tabiiydir.

70 - 80 yillar hikoyalarini yozgan avlod vakillari ijodida hayotda uchraydigan g'aroyib odamlar, jamiyatdagi e'tiborsiz, telbasifat odamlar olamining tasviri yetakchilik qildi. Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zamov kabi yozuvchilarning hikoyalarida davr qahramonlarining real timsollari ko'zga tashlana boshladi. Erkin A'zamovning "Anoyining jaydari olmasi", "Piyoda" tipidagi hikoyalarining qahramonlari tabiatida beg'uborlik, soddalik ustuvor. Hikoya qahramonlarini ismsiz qoldirish, g'ayritabiiy dunyoda va uning oralig'ida¹²

bo'layotgan voqea - hodisalar tasviri Nazar Eshonqul hikoyalarida uchraydi. Uning "Maymun yetaklagan odam", "Muolaja", "Tobut", "Shamolni tutib bo'lmaydi" kabi hikoyalarida tubdan yangilikka yuz tutildi.

XX asr oxiri, istiqlol yillarida adabiyotga kirib kelgan yosh nosirlar yozgan hikoyalar ham o'quvchilarga manzur bo'lishini ta'kidlash lozim. Tarix mulkiga aylanib ulgurgan so'ngi yuz yillik bashariyat oldiga yechimi mushkulroq bo'lgan bir talay muammolarni ko'ndalang qo'ydi, ularning zalvoridan kishi ba'zan o'zini ezgin kayfiyatlar asiriga aylangandek sezadi. Lekin bu hol bardavom emas. Chunki inson tabiati o'zgaruvchan bo'lgani bois bir psixologik holatni uzoq vaqt ko'tarib yurolmaydi: kecha musibat yukidan o'limni ham o'ziga ravo ko'rgan insonni bugun quvonchdan ko'kka sapchimoqqa shay topsak hayron bo'lmaymiz. Ha, bu xil kayfiyat, ayniqsa, zamonamiz kishisiga judayam mos bo'lib borayotir. Chunki biz yashayotgan dunyo, jamiyatlar so'ngi yuz yil mobaynida o'z qiyofasini shunchalar tez o'zgartirib turdiki, idrokimiz gohida sabab va oqibat munosabatlarini anglab yetolmay dog'da qoldi. Butun dunyoda ro'y berayotgan ziddiyatlarning, hatto aytish mumkinki, kulfatlarning o'q tomiri borib - borib o'sha ruh notinchligiga taqaladi. Sivilizatsiya hamisha ham insonning o'girini yengil qiladi, unga behisob foyda olib keladi, degan fikr unchalik to'g'ri emas. To'g'ri undan naf bor. U bashariyatni bevaqt o'lim, kasallik, tabiatga qullarcha mutelik kabi yuzlab balolardan halos qiladi. Inson bolasi ilgari tushiga kirmagan imkonlarga ega bo'ldi. Lekin ikkinchi yoqdan, masala mohiyatiga teran kirib borilganda shuning guvohi bo'lamizki sivilizatsiya insonni ruhiy - ma'naviy jihatdan moddiy tomondan qilganidek baxtli qilomadi.

Ruhiy ehtiyoj chashmalaridan biri - adabiyotdir. Biroq adabiyot faqat o'z muhlislari doirasida qolishi kerak emas. U butun jamiyatning yashah tarziza singib ketmog'i lozim.

XX asr o'zbek adabiyotida hikoya janrida Abdulla Avloniy, Abrurauf Fitrat , G'ozii Yunus , Abdulla Qodiriy , Cho'lpon , Rafiq Mo'min , G'afur G'ulom , Abdulla Qahhor , Mirkarim Osim , Parda Tursun , Hakim Nazir , Sayid Ahmad , Asqad Muhtor, Vali G'afurov, Saida Zunnunova, Maqsud Qoriyev, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov , Hudoyberdi To'xtaboyev, Uchqun Nazarov, Ne'mat Aminov, O'ktam Usmonov, Shukur Holmirzayev, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik, Erkin A'zamov, Ulug'bek Hamdam, Nazar Eshonqul, Zulfiya Qurolboy qizi, Boqiy Mirzo kabi iqtidorli ijodkorlar ijod qilishgan va qilishmoqda.

Hozirgi adabiy jarayonda Abdulla Qahhor izdoshlari ko'pchilikni tashkil etadi. Yozuvchi Shukur Xolmirzayevning "O'lis yulduzlar ostida", "Hayot abadiy", "Og'ir tosh ko'chsa", "Bodom qishda gulladi", "So'nmas olov", "Tog'larga qor tushdi", "O'zbeklar ishi" kabi hikoyalar to'plami, O'tkir Hoshimovning "Muhabbat", "Dehqonning bir kuni", "Urushning so'ngi qurboni" nomli hikoyalari, Erkin A'zamovning "Pakananing oshiq ko'ngli", "Shoirning to'yi" kabi qissa va hikoyalar to'plamlari, Ulug'bek Hamdamning "Yolg'izlik deb atalgan" qissa va hikoyalar to'plami, Boqiy Mirzoning "Kuygan ayol", "Makkoraning qismati" nomli hikoyalar to'plami bugungi hikoyachilikning asosi va yutug'ini tashkil etadi.

Adabiyotdagi badiiy makon hamda badiiy zamonning obraz tamoyili o'zbek nosirlarining hikoyalarida yorqin ochib berilgan. Hayotiy real voqelikning ramziy, uning ishoraviy, ruhiy tabiati SH.Xolmirzayevning "O'zbeklar" hikoyasidagi makoniy - zamoniy konsepsiyada yorqin namoyon bo'lgan. Asarda makon va zamonda kechuvchi voqealar muallif tomonidan hikoya qilingan. Bu esa hikoyada rivoyat, tafsiv, dialogning qorishiq kelishini ta'minlaydi, zero ularning bari birlikda o'quvchi tasavvurida badiiy voqelikni jonlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi o'zbek hikoyachiligiga modern yo'nalishi ham kirib kelgandek bo'ldi. Bu borada yozuvchi Nazar Eshonqulning "Tobut", "O'lik mavsum " kabi hikoyalarini misol qilishimiz mumkin. Boqiy Mirzoning "Kuygan ayol" kitobidagi

hikoyalarda ayollar taqdiri, loqaydlik va manmanlik oqibatlarining inson umriga zomin bo'lishi masalalari tahliliga to'xtash lozim deb o'ylayman..

I. 3. O'zbek adabiyotida Cho'lpon ijodining o'rni

Qonxo'r istibdodning begunoh qurboni boigan ulug' shoir, iste'dodli adib, mohir dramaturg, munaqqid va tarjimon Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon XX asr o'zbek adabiyoti tarixida alohida o'rin tutadi. U yangi o'zbek adabiyoti vakillarining birinchi avlodiga mansub bo'lib, Hamza, A. Qodiriy, Fitrat singari so'z san'atkorlari bilan bir safda turadi.

Cho'lponning iqtidori noyob, iste'dodi o'tkir, ilhomi xayol singari edi. Biroq u o'z ijodiy imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqara olmagan. Shoir ko'zi ko'rgan, ko'ngli tuygan, iqtidori pishitgan durdona asarlarini qog'ozga ko'chirishga ulgurmay, armon bilan dunyodan o'tgan. Cho'lpon shaxsga sig'inish hukmronlik qilgan qaltis davrda, ayni kuchga to'lgan va ijodiy kamolotga yetgan chog'i qirq yoshida «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olingan va 1938 - yili qatl etilgan.

1956-yilda Cho'lpon nomi oqlandi. Biroq bu holat uni ijodkor sifatida o'qish-o'rganish imkonini bermadi. Faqat istiqloлга erishilganidan so'nggina uning ijodi o'zining asl bahosini oldi, qadrini topdi. Natijada, Cho'lponning «Yana oldim sozimni» (she'rlar), «Kecha va kunduz» (roman), «Yorqinoy» (pyesa) kabi bir qancha ajoyib asarlari qayta nashr etildi. Cho'lponning hayoti va ijodi haqida Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, D. Quronov, Z. Eshonova, N. Yo'ldoshev kabi olimlarning bir qancha tadqiqotlari yaratildi.

Avvalo shuni qayd etish lozimki, Cho'lpon ijodi 20 - yillardayoq ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb etdi. Cho'lpon she'riyatiga birinchi bo'lib o'z davrining taniqli munaqqidi Vadud Mahmud yuqori baho bergan. U shoirning «Buloqlar» to'plami haqidagi taqrizida: «Bu kun o'zbek₁₅

adabiyotiga yana yangi bir to'n kiygizildi, Cho'lponning «Buloqlar» otliq yangi bir she'rlar to'plami bosilib chiqdi. Cho'lpon o'zbekning yangi shoiridir. Shuning uchun o'zbek elining bu kungi ruhi, holi, sezgisi «Buloqlar»da qaynaydir. o'zbek tili, o'zbek ohangi «Buloqlar»da sayraydir. o'zbekning ruhi toiqunlari bunda ko'piradir, ko'klar tomon uchadir.¹ ko'tariladir.

Umuman olganda, 20-30-yillarda Cho'lpon ijodi haqida ko'plab maqola va taqrizlar yozilgan. Olim Sharofiddinovning «O'zbek shoiri Cho'lpon», Oybekning «Cho'lpon shoirni qanday tekshirish kerak», Usmonxonning «Munaqqidning «munaqqidi» kabi maqolalari shu davrning mahsulidir. Biroq bu davrda yozilgan maqolalarning aksariyatida shoir ijodi ko'proq qora bo'yoqlarda yoritilgan. Masalan, «O'zbek shoiri Cho'lpon» nomli maqolada «Cho'lpon yo'qsul xalqning shoiri emas. U millatchi, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir...», — deb yozilgan.

XX asrning 20-30-yillarida Cho'lpon ijodi, asosan, qoralangan bo'lsa, so'nggi davrlarda, xususan, XX asrning 90-yillaridan boshlab shoir asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etishda xolislik tamoyillariga tayanildi. Shunga ko'ra, Cho'lpon ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan. Chunonchi, Ozod Sharafiddinov, Baxtiyor Nazarov, Naim Karimov, Erik Karimov, Sherali Turdiyev kabi munaqqidlarning turli maqola va risolalarida Cho'lponning she'riy va nasriy asarlari hozirgi kun talablari darajasida tahlil etilgan. Cho'lponning ulug' va noyob ijodkor, xalqparvar va vatanparvar yozuvchi ekanligi ko'plab dalillar asosida ko'rsatib berilgan.

Cho'lponning adabiy-ijodiy faoliyati 1913-yilda boshlangan, uning dastlabki she'r, hikoya, ocherk va maqolalari «Sadoyi Farg'ona», «Sadoyi Turkiston», «Turkiston viloyatining gazetasi», «Oyina», «Sho'ro» kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan. Cho'lpon 1917-yillardayoq ma'rifatparvar va

¹ Turkiston» gazetasi 1924-yil, 10-dekabr.

demokratik kayfiyatdagi yosh ijodkor sifatida tanila boshlagan. Uning «Qurboni jaholat», «Doktor Muhammadiyor» singari dastlabki asarlarida qoloqlik va jaholatga qarshi ma'rifatparvarlik va adolatparvarlik g'oyalari targ'ib qilingan.

Cho'lpon endigina yigirma yoshga qadam qo'yganda Oktabr to'ntarishi sodir bo'ldi. Shoir shundan so'ng «Qizil bayroq», «Ishtirokiyun», «Turkiston», «Buxoro axboroti» kabi gazetalar tahririyatlarida mehnat qildi. Cho'lpon ongida, dunyoqarashida o'sish-o'zgarishlar yuz berdi. Bu evrilishlar shoir ijodida ham o'z ifodasini topa boldi. Shoirning «Uyg'onish» (1922), «Buloqlar» (1924), «Tong sirlari» (1926), «Soz» (1935) to'plamlari o'zaro taqqoslansa, Cho'lpon shariyatidagi g'oyaviy-badiiy fazilatlar, shuningdek, ijodiy kamolot yo'lidagi izlanishlar, ziddiyatlar ochiq ko'rinadi.

Cho'lponning adabiy-ijodiy faoliyati 1913-yilda boshlangan, uning dastlabki she'r, hikoya, ocherk va maqolalari «Sadoyi Farg'ona», «Sadoyi Turkiston», «Turkiston viloyatining gazetasi», «Oyina», «Sho'ro» kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan. Cho'lpon 1917-yillardayoqma'rifatparvar vademokratik kayfiyatdagi yosh ijodkor sifatida tanila boshlagan. Uning «Qurboni jaholat», «Doktor Muhammadiyor» singari dastlabki asarlarida qoloqlik va jaholatga qarshi ma'rifatparvarlik va adolatparvarlik g'oyalari targ'ib qilingan.

Cho'lpon sho'rolar hukumatini dastlab “Sharqni qul emas, hur qilg'usidir” deb iliq kutib olgan, oktabr inqilobi bilan murosada bo'lgan. Shoir “Qalandar”, “Mirzaqalandar”, “Andijonlik”, “Q.”, “Cho'lpon” (“Tong yulduzi”. Bu taxallusni unga Munavvar qori bergan) taxalluslari bilan ijod qilgan. Qatag'on qurboni Cho'lpon adabiyotni “o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on ma'rifat suvi” deb atagan edi.

Cho'lpon XX asr o'zbek adabiyotining iqtidopli namoyondalaridandir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli hamma turi bilan faol shug'ullangan va uning adabiy me'rosi o'zbek adabiyotida katta o'ringa ega. U she'r, hikoya, roman, drama, tanqid, tarjima kabi badiiy ijod turlari bilan shug'ullandi. An'anaviy mumtoz she'riyatimizni isloh qildi. Undagi sirlik, qo'letmaslik, tantanavorlik, --- o'rniga samimiy, tabiiy, jonli ifoda usulini olib kirdi. Ma'shuqa tavsifi va hol sharhini yangi asoslarga ko'chirdi. Voqelik uning uchun ham asosiy tasvir obekti, ham uni baholaydigan mezon bo'lgan. She'riyat uning ijodi bilan kundalik hayotga kirib bordi. Hikoyalarida xalq hayotini yaqinlikda tasvirladi. O'zbek adabiyotida uning hikoyalari xalqchilligi bilan ham ajralib turdi va alohida o'rin egalladi. Xalq hayotida yuz bergan har bir hodisa uning asarlarida o'sha zahotiyoq aks - sado berdi. Har bir hodisani adib Vatan va Millatning manfaati nuqtai nazaridan yoritdi. Uning hikoyalarida o'z davri, zamon ruhiyati ufurib turadi. Shuning uchun u o'zbek adabiyoti sahnasida ko'rinishi bilanoq hikoya va she'rlari orqali ko'zga ko'rindi. Cho'lpon bizga qoldirgan adabiy merosining umumiy holati juda keng. U nosir sifatida adabiyotimizda salmoqli o'rin tutadi. Uning "Kecha va kunduz" romani bilan birgalikda turli davrlarda yozib chop etilgan hikoyalari mavzu ko'lami, g'oyaviy butunlik, mavzular salmoqliligi kabi xususiyatlarni o'zida namoyon qiladi. Ular orasida 1941-yilda e'lon qilingan ilk hikoyalari "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadyor" kabilar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

"Qurboni jaholat" hikoyasida o'zbek adabiyotiga zamon uchun xos bo'lgan voqea - hodisalar olib kirilgan. Unda Eshmurod ismli yigitning fojiali taqdiri hikoya qilinadi. Eshmurod – o'qimishli yigit, lekin uning atrofi zimiston bo'lgan. Uning atrofi jaholatga botgan. Hatto o'z otasi uni gazeta o'qigani uchun masxara qiladi. Maktab, ilm – fan, ibrat olish degan gaplarga millatning toqati yo'q. Eshmurodga mana shu tashvishlar tinchlik bermaydi. Uning ustiga bir voqea yuz beradi – yu Eshmurodning hayoti o'stin – ustun bo'lib ketadi. Eshmurodlarnikiga

uning yoshlikdagi tanishlaridan Mo'minjon kelgan edi. Ko'zini shamg'alat qilib, otasining soatini o'marib ketadi. Otasiga bu soatni yaqin do'sti Nazarali so'fi hadya qilgan edi. Mo'minjon ketishi bilan izma – iz ular kirib keladilar, gap aylanib soatga kelib taqaladi-yu, uning yo'qolgani ma'lum bo'lib qoladi. Izza bo'lgan ota o'g'liga dashnom berish bilan kifoyalanmaydi, uni kaltaklaydi. Eshmurod nomus kuchidan yotib qoladi. Bir oycha yotib, bir oz tuzalgach, qo'shnisi mingboshining bog'chasiga chiqib, gazeta varaqlab o'tirganda yana shunday voqea yuz beradi. Mingboshi uni gazeta o'qitish uchun mehmonxonasiga taklif etadi. O'yinqaroq yoshlardan biri kelib, bu gal mingboshining qoziqqa osib qo'yilgan tilla soatini o'g'irleydi va uning tuhmati Eshmurodga tushadi. Hech bir gap so'z yo'q, mirshablar bostirib kelib, uni qamamoqchi bo'ladilar. Bularga chiday olmagan Eshmurod o'zini nobud qiladi. Bir – ikki kundan keyin taftishlar chog'ida o'g'ri aniqlanadi, lekin endi vaqt kech edi. Hech qanday achinish va afsuslarning keragi yo'q. Eshmurod jaholat qurboni bo'ladi. Ushbu hikoya orqali davrga xos bo'lgan g'oyat yomon illatlar qalamga olinadi. Ilm – ma'rifatni ulug'lash, jaholatga qarshi kurashish kabi g'oyalarni Cho'lpon ushbu hikoyasiga singdirib yuborgan. Ushbu hikoya o'zbek adabiyotida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. O'qimishli inson bor, lekin uning butun atrofi jaholatlilar bilan qurshalgan. Shunday ekan, insonning ma'rifatga bo'lgan intilishlari, ezgu g'oyalari ham bekor ketadi. Millatning esa shunday odamlar ta'sirida ilm - fan, ibratli xulosalar kabi tushunchalarga umuman toqati toq. Adib ushbu hikoyasi orqali millatni ilm - fan, ezgulik kabi tushunchalarni qalblariga jo qilishga undaydi. Soxta o'g'irliklar orqali barcha soxta illatlarni ro'y - rost ochib tashlaydi. Ishonchsizlik, g'aflat, yolg'onchilik, ikkiyuzlamachilik kabi salbiy odatlar ohir - oqibat fojeaga olib borishi tasvirlangan.

To'g'ri, ushbu asar badiiy jihatdan mukammal emas, voqealar sun'iy, badiiy til yaxshi ishlanmagan, lekin u dastlabki hikoyasidayoq voqelikni mahzun, voqea bilan idrok etish, Turkiston musibatini teran anglashga intilish seziladi. Bu

musibatni teran anglashga intilish uni yana ko'plab hikoyalarni yozishga undaydi.

Uning "Do'xtir Muhammadyor" hikoyasida bir oz nur bor. Unda muallif ma'rifatchilikni bir qadar yorug' bo'yoqlarda aks ettirgan. Hikoya markazida Muhammadyor taqdiri turadi. U 15 yoshida otasi bilan hajga borib, bir dunyo tashvishni boshidan kechirgan Hoji Ahmadning o'g'li. Hoji Ahmad inson saodati ilm - ma'rifatda ekanligini yaxshi angelaydi, bir guruh johil qimorbozlar qo'lida jon berar ekan, o'g'liga o'qishini tayinlaydi. Muhammadyor otasi qotillaridan o'ch olmaydi. Hammasiga aybdor jaholat ekanligini tushunib yetadi va bor kuchi bilan dastlab Bokuda gimnaziya, so'ng Petrograd universitetida, nihoyat 7 yil Shveytsariya dorifunining tibbiyot fakul tetida o'qiydi. Yurtiga qaytib kelib, bilimi orqasidan obro'-e'tibor topadi. Xususiy shifoxona ochib, kambag'allarni tekin davolaydi. "Vatan" nomli jurnalni, "Xabar" degan gazetani yo'lga qo'yadi. Oddiy Muhammadyordan "Do'xtur xodimi millat Muhammadyor"- ga aylanadi.

U nafaqat "do'xtur", balki qalam egasi ham edi. U Petrogradda ekan, aziz umrlari samarasiz kechayotgan madrasa talabalari turmushidan "Umrlik shogirdlar" degan roman yozadi, u rus tiliga tarjima qilinadi. Talabaligining so'nggi yilida esa Moskva va Petrogradda ekan, aziz umrlari samarasiz ketayotgan madrasa talabalari turmushidan "Poytaxt mehmonlari" nomli bir teatr kitobi yozib, "Tilsiz", ilmsiz, madaniyatdan uzoq boyonlarimizning ko'cha - ko'yda, mehmonxona nomerlarida ajnabiylar tomonidan haqorat qilinishlarini ko'rsatib beradi. Uni o'zi ruschaga tarjima qiladi. Poytaxt teatrlaridan birini ijaraga olib, talaba o'rtoqlari bilan sahnaga qo'yadi. Bosh ro'l – xo'jayinni o'zi o'ynab, olqishlar oladi. Ko'rinyapdiki, Cho'lpon XX asr boshidagi Turkistonning peshqadam kishisi deganda, zamonning mana shunday hamma masalalariga javob bera oladigan, barcha jabhada elining koriga yaraydigan shaxsni tasavvur etadi.

Muhammadyorning barcha xatti – harakatlarini boshqarib turgan kuch uning el yurtiga muhabbatidir. Bir tomonda, pul topib, aql topmagan boylarning o'z sarvatlarini qimor va fahshga sarflab, mol – mulklarining ajnabiy kelgindilar²⁰

qo'liga o'tib borishi, ilmsiz mast – alast boyvachchalarning o'zaro talashib burnilaridan narini ko'ra olmasliklari, ikkinchi yoqda, tahqirlar, haqoratlar Muhammadyorni qattiq iztirobga soladi. Darhaqiqat, uning nazdida millatni mahv etgan eng buyuk illat jaholatdir. U poezdda Vatanidan o'lislab ketar ekan, buyuk bobolarini ko'rgan bobo tog'larga qarata nido qiladi. Ularni ko'zlarini ochishga, zamon bilan baravar qadam tashlashga chaqiradi.

“Ey vatandoshlarim! Qachongacha bu g'aflat? Nimaga buncha xushyoqmassizlar? Axir, sizlar ham odam-ku! Odamlardek harakat qlingizlar! Ko'z oldingizg'a kelub turg'on ilm va ma'rifat mevasidan foydalanmasdan nimaga og'izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqudan ko'z ochinglar! Uyqudan ko'z ochinglar! Urininglar! Ilm, ma'rifat va xunar izlanglar! Vaqt yetadi, balki o'tdi!”.²

Uzoq yillar yevropada yurib, Turkistonga qaytar ekan, poezdda yana o'sha eski manzaraga duch keladi: “Vogon ichida pish-pish uxlagan va bilet yo'qotib kanduktorlardan tayoq yegan betartib” millatdoshlari ... Muhammadyor chiday olmay, tanburga chiqadi. Ko'ziga maftunkor vatanning manzaralari uriladi. Yo'q, bular Shveytsariyadan mutlaqo qolishmaydi. Mahsuldor tuproqlarining esa, Amerikanikidan hech bir kamligi yo'q...

Uning hayolidan shular o'tadi: “Xalq o'z foydasini anglasa, milliy maktab va madrasalar ochsa, Ovro'pa Doriffununlariga bolalarini yuborsa, do'xtir, advokat, muharir va hunarmand, savdogarlar va injinerlar chiqsa, bularning har biri o'z vazifalarida turib ishlarin tartibi ila yurguzsalar va xalqimizning foydasini kuzatsalar, naqadar oliy va naqadar go'zal bo'lar edi...”. lekin bu xayollar shu ondayoq shubhaga g'arq bo'ladi, yana jonlanadi. Agar shunday fikrli odamlar har shaharda bo'lsalar, albatta, amalga oshadi, deb o'ylaydi. Vataniga qaytgach, g'ayrat bilan ishga kirishadi va ko'p narsaga erishadi. Xususiy shifoxona va magazinlarga mehnati, tadbirkorligi bilan qonuniy asoslarda erishadi.

² Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik, 2 - jild- Toshkent «Akademnashr» - 2013. B.283.

Ko'ringanidek, hikoya ma'rifiy darajada qolgan, yuqori badiiylik darajasiga ko'tarilgan emas. Asosiy sababi bayonchiligida. Unda tasvir deyarli yo'q.

„Oydin kechalarda” – kichkina hikoya bo'lib, Zaynab kampir bir narsadan cho'chib uyg'onishi bilan boshlanadi. Oppoq oydin, oy kampir yotgan so'richaning qoq o'rtasidan unda-bunda, bitta-yarimta uchragan oq bulutlarni yorib shoshib o'tib borishi asarda mahorat bilan tasvirlangan. Kampir u yoq bu yoq qarashi, uyqusi qochib qiynalib to'lg'onishi, yoshiga munosib ravishda o'y-xayollar girdobida tasvirlanadi.

Hikoyada kunning tasviri juda ham go'zal tasvirlangan. Tun bo'yi chopishib, hurushib, yugurishib chiqqan itlar tovushi sekin-sekin yo'qola boshlagani, hasrat va qayg'ularini har kecha tinimsiz sayrab turuvchi bulbul holati juda go'zal holda g'oyat ishonarli aks ettirilgan. Unda go'riston va mozordagi jimjitlik holati insonni bevosita etini junjuktiradi. Shu paytda insonni g'alati holga soluvchi yig'i holati tasvirlangan. Kampir yig'i ovozi kimniki ekanligini ancha paytgacha taniy olmay yotadi, qo'shnilaridan kelinimi, qizimi yig'layotganligini o'ylab o'ylanib chiqadi. Shu paytda ularni turli kishilar nomi bilan taxmin qilib ko'riladi.

Parilar o'z qizlarining sochlarini bog'-rog'larda oydin kechalarda tarar ekanligini ularning qizlari “Ko'b silliq qilsangiz, kuyov olib ketib qoladir” deb yig'lashlari tasvirlangan. Lekin ajina qiz, pari qiz mundog' yig'lamasligi, yig'lasa ham juda g'alati bo'lishi aytilgan. Yig'i ovozi tinavermagach, kampir o'rnidan turadi. Kelinining chirog'i o'chmaganini ko'radi. U kelinchak shu paytgacha uxlamaganidan hayron bo'ladi. Yig'i ovozi o'z kelinining uyidan kelayotganini payqayotgandek bo'ladi. Kelini o'ksib-o'ksib yig'lar, hayotidan nolib, kelin bo'lib tushgandan buyon ikki martagina o'g'li Qodirjon bilan birga bo'lganini aytadi.

Asarda Kelling o'z hayotidan nolishi ta'sirchan tarzda berilgan. Kampir keliniga uning hayoti ham huddi shunday bo'lganligi, hayotlari o'xshash ekanligini aytadi. Endi kelinini o'z qiziday ko'rishini aytib, butun umrga baxtli

yashashlariga tilak bildiradi. Asarda ayollarga xos bo'lgan mehr-oqibat timsoli sezimli tarzda ifodalangan. Insonning yashash tarzi, o'y-xayollari g'oyat o'tkir chizgilarda berilgan bo'lib, bu insonni hikoya orqali chuqur xulosa chiqarishga undaydi.

“Qor qo'ynida lola” hikoyasida ayollarning ayanchli holati tasvirlangan. Unda ayollar to'p o'yini orqali birma-bir tanishtirib boriladi. To'p o'yinida Toji qassobning kichik qizi Turg'unbush, Sharofatxon, Abdulla jallobning qizi To'tixon, Saltanat, Gulnor, Samandar aka, Eshon, Sulton Orif, Qumribush, Aziza Otin, Rustam akaning xotini kabi obrazlar ishtirok etadi. Asarda 17 yoshli qiz, sharofatxonning otasi tazyiqi bilan chol (Eshon) ga berilishi hikoya qilinadi. Ushbu hikoyani o'qib yana inson beixtiyor o'yga toladi. Inson dunyoga kelar ekan, u shu jamiyatning bir qismi, a'zosi hisoblanadi. Shunday ekan u tinimsiz harakat qilishi o'zidan munosib nom qoldirishi lozim. Ota-ona esa o'z farzandini, jigarbandini asrashi, baxtli bo'lishi uchun o'z hissasini qo'shishi lozim. Shunga ko'ra asarda Sharofatxonning dadasi Samandar aka qizining baxtini emas, manfaat, boylik kabi yaramas illatlarni o'ziga odat qilib o'z qizini, 17 yoshli dilbandini Eshonga turmushga uzatadi. Bu bilan o'sha davrdagi eng yomon illat ro'y-rost ochib tashlanadi. Insonning erki ayollarning huquqlari yo'qligi o'tkir bo'yoqlarda chizib beriladi.

Kelinning aravadan tushirish jarayoni esa kulgili va ta'sirchan tasvirlanadi. “Chol titrak qo'llarini aravaga uzatib, qizni ko'tardi va bir-ikki odim bosg'andan so'ng yerga qo'ydi.

Yana xalq chivirlashib ketdi:

- Barakalla, taqsir, barakalla!
- Bo'sh kelmadilar taqsirim!³
- Hali bellari baquvvat ekan taqsirimning!” kabi tasvirlar “kuyov”ning juda keksa ekanligidan xabar beradi. “Kuyov” o'zining bu uylanishidan uyalmaydi, tortinmaydi ham.

³ Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik, 2 - jild- Toshkent «Akademnashr» - 2013. B.300.

Butun xalq Sharofatxonning bu baxtsizligidan kuyinadi, lekin bularning bari behuda. Zolim ota o'z qizini baxtsizlik domiga itaradi, barcha yomon ishlarga o'zi sababchi bo'ladi. Go'zal, latofatli, yosh lola ustiga qor yog'adi; u qor qo'ynida qolib ketadi. O'z hikoyasi orqali yozuvchi hikoyachilik rivojiga ulkan hissa qo'shadi, mavzu ko'lamini kengaytiradi. Adabiyotshunoslikda ushbu mavzuga oid asarlar ko'plab yaratilgan bo'lsa ham ular ichida o'z o'rniga ega bo'lgan asar sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.

“Seni ko'b ko'rmasin” (Farg'ona hayotidan) hikoyasi onaning eski to'shaklar orasida to'lib toshib uxlab yotgan bolasiga muhabbat bilan uzoq-uzoq tikilishidan boshlanadi. Bu ona Xadichaxon bo'lib, uning uxlab yotgan bolasi Is'hoqjon edi. Is'hoqjonning otasi Roziqjon o'sha qishloqlik bir dehqon yigit bo'lib, 4-5 tanob yerga o'zi ishlab 5-6 yildan beri shu ro'zg'orni aylantirib kelar edi. Ro'zg'or katta emas: bir xotini, bir onasi, ikki bolasi va bir Roziqjondangina iborat edi. Inqilobdan oldin ro'zg'orning g'oyat tinch va osuda yashashi aytib o'tilsa, inqilob va urush davrlarida oilani qiyinchilik ko'rganligi va ro'zg'orni qaldiratib olib boorish juda og'ir bo'lib qolganligi aytiladi. Shunday bo'lsa ham yosh, g'ayratli lekin yoshligidan beri tinchlikni sevib katta bo'lgan Roziqjon oilani “bir qarich tuproq ustida” bo'lsa ham so'nggi chog'largacha tebratib keladi. Ro'zg'oning ichki hojatlari uchun ikkita sog'lom sigir, bitta qo'shchi ot orttirdi, turmush bir xilda o'tayotganligi aytib o'tiladi. Bir kuni yarim kecha sahar bo'lguncha Roziqjondan xabar bo'lmaydi. Xadichaxon va qari kampir og'ir bir iztirob ostiga tushib qolganliklar aytiladi, nihoyat eshik qoqiladi. Eshikni ochib kampir “Voy bolam”lab yig'lab kiradi. Xadichaxon yugurib chiqib uch erkakning qo'lida qora qonga bo'yalib yotgan Roziqjonni ko'radi. Xadichaxonning ayanchli holga tushib qolganligi shunday tasvirlanadi:

“Bir nafas to'xtadi, na yig'i keldi, na boshqa, boshi ketdi”.⁴ Kishilar o'likni bo'yraning ustiga qo'yib ketayotib Roziqjonni toladan kelayotib yo'lda beklar otib ketganligini aytadi.

⁴ Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik, 2 - jild- Toshkent «Akademnashr» - 2013. B.312.

Mana ushbu voqeaga ham bir yil bo'lib o'tadi, bularni eslab Xadichaxon bolasiga termulganicha uzoq o'y-xayollarga beriladi.

“Kattalarning” begona o'qi orqali Sobirjon ham vafot etdi. Oqibatda Xadicha ham aqlini yo'qotgan kimsalarga o'xshab qoladi. Bitta-yu bitta, yolg'iz qo'zichog'ining omon bo'lishini, Allohdan uni ko'b ko'rmasligini so'raydi.

Asarda oddiy xalqning holiga, taqdiriga umuman befarq amaldorlarning yomon, chirkin fazilatlarini yorqin bo'yoqlarda ochib beriladi. Insonga hayot ne'mati berilar ekan, undan mahrum etishga hech kimning haqqi yo'q degan mazmun, g'oya asarda ilgari suriladi.

“Nonushta” (“Pilta savat hikoyasidan”) hikoyasi ham ravon va puxta yozilgan hikoyalardan hisoblanadi. Asarda egachisi Fotima va singlisi Solihaning bir-biriga piching otishlari tasviri berilgan va asar syujeti shunday boshlanadi. Fotima Solihaga qatiqning betini olib o'tishni buyuradi. Soliha qatiq betini olib o'tgani erinadi va bu erinishni yashirishga urinib, turli bahonalar o'ylab topa boshlaydi. Soliha opasiga to'y qilishlarini, yor-yorlar sadosi yangrashini aytsa, Fotima ham o'zidan so'ng singlisiga navbat yetishini aytib, uni biroz hijolatga qo'yadi. Ular biroz tortishib qolishadi. Bu tortishuv yozuvchi tomonidan yuksak saviyada berilgan bo'lib, unda ikki opa-singilning bolalarcha sodda va beg'ubor hislari o'z aksini topgan. Ular arazlashsa ham, gina qilsalar ham baribir opa-singil, bir-birlariga mehribon. Ularni jon rishtalari, oilaning muqaddas hislari bog'lab turishi tasvirlangan.

Fotima savatdan qotgan non ola turib, Ziynatnisalarnikiga kirib shahardan kelgan Eshonning qizini ko'rib chiqmoqchi bo'lganini eslaydi, bu qizning yaxhi dutor chalishi to'g'risidagi gap-so'zlarni o'ylaydi. Yozuvchi ushbu hikoyasida ham romanlarida ifodalangan voqealar tizginini oz bo'lsa ham kiritadi. Uning hikoya va romanlari bir-birini to'ldiradi, biri biridan oziqlanadi.

Hikoyadagi qizlarning onasi Saodat buvi qizlarini qancha urishmasin ularni ahil bo'lishlarini xohlaydi, ularga baxt tilaydi. Bu bilan o'zbek onasining o'ziga xos timsoli chiziladi. Qizlarning bir-biri haqida fikrlarini eshitib, ularni yosh ekanliklarini aytib insofga chaqiradi, oqibatga undaydi. Ularning kelinlari Parizod obrazi ham asarda yaxshi tasvirlangan bo'lib, u oq ko'ngillik va eslik kelin nonushtaga chaqirilmagan bo'lsa ham “- Nonushtaga ham chaqirib o'lturib, nima men mehmonmidim? Nonushtani o'zim chiqib tayyorlamaganimg'a hijolat bo'lib o'lib ketayotibman-u” deb aytadi. Bu bilan Parizodning ko'ngli toza va oq ko'ngil ekanligi yorqin aksini topadi. Hikoya sof, samimiy, soddadil o'zbek oilalarining bir ko'rinishi timsolida beriladi. Hikoyada adib ayollarga xos so'z, ibora va maqollardan ham o'rinli foydalangan bo'lib, ular ayollar shaxsini ochib berishga ham yordam bergan.

Cho'lpon hikoyalari, adabiy merosi salmoqliligi bilan o'rin egallar ekan, ularning har birida zamon va unda shaxsning kechinmalari go'zal ifodalar bilan berilgan. Uning nosir sifatidagi faoliyati ham o'zbek adabiyotida katta baholanadi. Uning ko'plab hikoyalari ma'rifiy darajada berilib, badiiylilik darajasiga ko'tarilmagan bo'lsa ham kishiga o'zgacha taassurot uyg'otadi, insonni yaxshilikka chorlaydi. Ular sodda va xalq tiliga tushunarli ravishda berilib, bu asarning o'qishlilikini ta'minlaydi.

Uning o'zbek ayollari taqdiridan so'z ochgan “Qor qo'ynida lola”, “Oydin kechalarda”, “Nonushta”, “Gavharoy” kabi hikoyalari badiiy saviyasi bilan ham ajralib turadi.

XX asr o'zbek adabiyotida nasr va uning ifodasi taniqli adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilgan. Hikoya janrida qalam tebratmagan odamning o'zi bolmasa kerak, Yuqorida ko'rib o'tganimizdek hikoyachilikda Cho'lpon ijodining o'ziga xos o'rni bor. Cho'lpon hikoyalarida syujet, mavzy va goya uyqunligini saqlab qolishga harakat qiladi, bir – birini takrorlamaydigan obrazlar yaratadi.

II bob. Cho'lponning obraz yaratish mahorati

II. 1. Cho'lpon hikoyalarida ayol obrazi ifodasi

Hozirda milliy uyg'onish davri deb atayotganimiz o'tgan asr boshidagi Turkiston ijtimoiy hayotini yillar davomida mustahkam to'g'on-la tushovlangan asov daryoning o'sha to'g'onni shiddatla oquviga mengzagimiz keladi. Zero, botindagi qudratning zohiriy ko'rinishi bo'lmish bu shiddat elning qalb ko'zi tiyrak o'g'lonlari dilidagi asriy umidlarni quvvatlantirib, ularni buyuk maqsadlar sari ilhomlantirgan edi. Millatning tarixiy taqdirini belgilovchi davrlarning har kuni asrlarga tatigulikdirki, vijdonli kishilarning bunday paytda shiddatli hayot oqimidan chetda turishlari also mumkin bo'lmagan hodisa. Bu narsa, ayniqsa, ijod ahliga tegishdir. Bunday davrlarda yashagan ijodkorlar uchun shaxsiylik va ijtimoiylik chegaralari mavjud emasdek, ularning qalbi jamiyat hayotidagi o'zgariishlarga hamohang urayotgandek. Aytish mumkinki, ijodkor davr ijtimoiy hayotining barometriga aylanadi: zamondoshlarni ertangi kun havosidan, izg'irinu quyoshli kunlardan ogoh etib turishlikni o'zining vazifasi deb biladi. Albatta, bugungi kun yuksakligidan turib ularning ijodiga turlicha baho berishimiz mumkin. Ayrimlarimiz "shu tufayli ham ularning aksar asarlari vaqt sinoviga dosh berolmadi" desak-da, mumkin. Biroq, mulohaza qilaylik, o'zimizni ularning o'rniga qo'yib ko'raylik. O'sha ijodkorlar qarshisida ikki turli yo'l mavjud edi: yo mangu mavzularga qo'l urib boqiylikka bo'ylovchi asarlar yaratish va yo kunning dolzarb muammolariga munosabat bildirish orqali millat, Vatan kelajagiga ta'sir etish. Shu xil tanlov imkoniyati yuzaga kelganida ko'plab ijodkorlarimiz, hatto buyuk iste'dod sohiblarida, butun kuch-u iqtidorlarini ikkinchi maqsadga yo'naltirdilar. Ana shunday fidoyi ijodkorlardan biri, shubhasiz, Abdulhamid Cho'lpondir. Cho'lpon asarlarida uning yoniq yuragi, olovli shaxsiyati, ta'sirchan ko'ngil, isyonkor tabiati yaqqol ko'rinib turadi. U shaxsiyati bilan asarlari bir bo'lgan ijodkor edi. O'zbek adabiyoti tarixida biror bir ijodkor Cho'lpon singari²⁷

qaltis vaziyatda yashab turib, o'z millati sha'ni, ozodligi, tengligi uchun bu qadar dadil kurashmagan.

Obraz - keng ma'noda ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasi, tor ma'noda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosidir.

Badiiy adabiyotda insonning aniq shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda badiiy umumlashma xususiyatlariga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz hisoblanadi.

Obrazlar turli xil bo'ladi:

Realistik obrazlar- hayot haqiqatiga monand obrazlar.

Romantik obrazlar- hayotda aynan bo'lmagan, ammo bo'lishi orzu qilingan obrazlar.

Xayoliy-fantastik obrazlar- haddan tashqari bo'rttirilgan, ilohiylashtirilgan, mo'jizaviy xarakterga ega bo'lgan obrazlar.

Afsonaviy obrazlar- butunlay xayoliy bo'lib, ular bitmas-tuganmas kuch-qudratga, yuksak fazilatlarga ega bo'ladi.

Ramziy obrazlar- narsalar, o'simliklar, jonivorlar, ranglar orqali ijtimoiy hodisalarni umumlashtiruvchi obrazlar.

Mifologik obrazlar- afsonalar asosida yaratilgan asotiriy obrazlar.

Satirik-komik-yumoristik obrazlar- kulgi bilan tasvirlangan obrazlar.

Bosh obrazlar- asar voqealari markazida turib, asar ziddiyatining hal etilishida yetakchi rol o'ynaydigan, sujet voqealarini harakatga keltiruvchi, yozuvchi g'oyasini ifodalaydigan obrazlar.

Ikkinchi darajali obrazlar- asar markazida turmasa ham, biror jihati bilan yozuvchi

g'oyasini ifodalaydigan obrazlar.

Epizodik obrazlar- voqealar zanjirida bir-ikki o'rindagina qatnashib, keyin tushib qoladigan obrazlar.

Tragik obrazlar- fojialardagi obrazlar, ular haqiqatan tarixiy shaxs, qadimgi afsona, rivoyat, hikoyalarda tasvirlangan qahramon yoki muallif badiiy tafakkurining mahsuli sifatidagi to'qima obraz ham bo'lishi mumkin. Tragik obraz zamirida hayot haqiqatiga asoslangan badiiy haqiqat yotadi, ular keskin, beayov, murosasiz kurashni boshdan kechiradilar.

Ma'lumki, har bir ijodkorning o'z uslubi, o'z yo'nalishi bo'ladi. Kimningdir murakkab uslubdagi asarini tushunish uchun kitobxon o'zini anchagina zo'riqtirishga majbur bo'lsa, kimningdir sodda uslubdagi bitgini qabul qilib zavqlanadi. Badiiy niyatni xarakterlar talqinida kitobxonga qanday yetkazib berish iste'dod sohibining uslubi, mahorati bilan belgilanadi. Cho'lpon qalamiga mansub hikoyalarni o'qir ekanmiz, uning o'zigagina xos bo'lgan tasvir uslubini, soddalik va ravonlikni, fikr va tuyg'ular samimiyligini kuzatamiz. Adib o'z hikoyalarida hayot ma'nosi, umr mazmuni, insonlarning o'y-kechinmalari xususida keng mulohaza yuritadi. Inson obrazini yaratar ekan, tasavvur va badiiy tavsif uchun unga turli tomondan razm soladi. Ijodkor sifatida uni insondagi hamma narsa – uning tashqi va ichki dunyosi, odat va fikrlari, yashash va xizmat joyi, atrofidagi odamlar va tabiat olami bilan o'zaro munosabatlari- barcha-barchasi qiziqtiradi. Cho'lpon ijodida, ayniqsa, ayol obrazi, uning ichki kechinmalarini tasvirlashda ayrica munosabat ko'zga tashlanadi. Cho'lponning “Oydin kechalarda”, “Novvoy qiz”, “Qor qo'ynida lola”, “Nonushta” kabi hikoyalarida ayollarning nozik kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari tasvirlangan.

Cho'lpon asarlari mavzusi xilma-xil, u qanday asar yozmasin, qaysi yo'nalishda ijod qilmasin uning har bir asarida millat sha'ni, ozodligi, tengligi, yurt

farovonligi, xalqni ilmi, ma'rifatli qilish, ayollar sha'ni, qadr-qimmatini yuqori baholash kabilar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yozuvchi Y. Shamsharov Abdulla Qahhor haqidagi xotiralarida poyezddagi hamrohining "Dahshat" hikoyasi to'g'risidagi quyidagi fikrlarini keltiradi:

"O'tmishda ayol zoti boshidagi hamma xo'rlik, musibat go'yo shu kichik hikoyaga joylab qo'yilgan". Cho'lponning "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz" kabi hikoyalari va "Kecha va Kunduz" romaniga ha xuddi shu ta'rifni bersak adashmagan bo'lamiz.

Cho'lponning "Qor qo'ynida lola", "Nonushta", "Novvoy qiz", "Oydin kechalarda" kabi hikoyalarida ayol obrazi, o'zbek ayolining sabr-matonati, samimiyligi, soddaligi ochib berilgan.

Zaynab kampir bir narsadan cho'chub uyg'ondi. Oppoq oydin, oy kampir yotqan so'richaning qoq o'rtasidan unda-munda, bitta-yarimta uchragan oq bulutlarni yorub shoshub o'tub borar edi. Cho'lponning "Oydin kechalarda" deb nomlangan kichkinagina hikoyasi mana shunday go'zal tasvirlash bilan boshlanadi. Ushbu hikoyada sodda Zaynab kampir va uning kelini hamda o'g'li tasvirlanadi. Hikoya bejiz Oydin kechalarda deb nomlanmagan, undagi voqealar shu oydin kechada bo'lib o'tadi. Kunlarning oydin bir kechasida Zaynab kampirning uyqusi qochadi, u o'z yoshiga, o'z davriga munosib bo'lgan xayollarni sura boshlaydi, birozdan keyin uni yana uyqusi kelib uyquga ketadi. Osuda tun. Go'riston va mozorlardag'ina bo'ladigan chuqur bir jimjitlik...

Kampir yumilib borgan ko'zlarini birdan ochdi: yaqin bir yerdan hasratlik, ko'ngil buzadigan bir yig'i tovushi eshitilar edi.

Bu kim? Kechalari uxlamasdan yig'lab chiqg'uchi kim? Hamma tinch va rohat uyquga tolgan bir zamonda qalbini yaralab yig'lag'uchi qanday baxtsizdir? Soddadil, to'g'ri ko'ngil, oddiy bir o'zbek buvilari timsolidagi Zaynab kampir

yig'layotgan o'z kelini bo'la turib, umuman bu haqda o'ylamaydi, Xadicha otinning kelini desa, bugun uning o'rtoqlari kelib ikki xuftongacha o'yin kulgi qilishdi. Salomatxonning qizi desa, qishloqqa chiqib ketgan edi, hali kelganicha yo'q. O'z kelinining bo'lsa yig'laydigan joyi yo'q. Lekin yig'i ovozi hali-beri tinadiganga o'xshamasdi, kampir ko'ngli bezovta bo'lib, kelini uyi tomon boradi, quloq bersa yig'i ovozi kelinni uyidan chiqayotgan edi. Kampir kelinni uyiga kirsam, qizil shohi ko'ylak kiygan, qop-qora sochlari yerlarda sudralgan yosh kelin karavot yonida yig'lab, yig'idan qavargan ko'zlarini yengi bilan artib o'tirar edi.

Hikoyani o'qigan har bir kitobxon ko'z o'ngida sodda, quvlikni bilmaydigan mehribon o'zbek onasi gavdalanadi.

Kampir kelinidan nega yig'lagani sababini bir necha marta so'raganidan so'nggina kelin to'lgan, toshgan holda, kuchli va qo'rqunch bir tovush bilan "Onajon" deb baqiradi va o'zini kampirning quchog'iga otadi, shu holda ham to'lib-toshib yig'laydi

-Onajon men kechalari uy poylash uchun kelin bo'lib keldimmi?-⁵ deydi kelin.

Kampir kelinini qistovga olgani uchungina dardini shikoyat qiladi, bir yarim oylik kelin har kecha Qodirjonni kuta-kuta yolg'iz tong ottirishini aytadi.

Kampirning ham ko'ziga ikki tomchi yosh quyilib: "Otasi ham shundoq, qizim..."⁶-deydi.

Shu so'zdan keyin ikkalasi ham uzoq vaqt jim bo'lib qoladilar.

Cho'lpon kelin obrazini yaratishda ham haqiqiy o'zbek ayolining sabrmatonati, irodasini ko'rsatib beradi, bu fazilatlar aynan o'zbek ayoliga xos.

Kelinda ayollarga xos noziklik, shirin orzular, his-tuyg'ular bor. Buni yozuvchi birgina holat orqali ko'rsatadi. Kelinning yagona orzusi bor edi. U erining unga

⁵ Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik, 2 - jild- Toshkent «Akademnashr» - 2013. B.293.

⁶ Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik, 2 - jild- Toshkent «Akademnashr» - 2013. B.293.

atir-upalar, taqinchoqlar sovg'a qilishini, har kuni yori yonida bo'lishini xohlardi. Lekin buni hech kimga aytmas, faqatgina yolg'iz qolganida ichida o'ylardi, xolos.

Kelin bir yarim oydan beri, yangi tushgan kelin bo'lgani holda turmush o'rtog'i bo'la turib, tunlarni turmush o'rtog'ini kuta-kuta o'tkazadi, ya'ni dardini hech kimga doston qilmaydi, hatto o'g'il o'stirgan qayin onasiga ham shikoyat qilmaydi, faqat unsiz yig'laydi, xolos, kampir buni sezib qolgani va undan qo'yarda qo'ymay so'ragani uchungina yig'lashi sababini aytadi, buni qarangki, yoshi bir joyga borib qolgan kampir ham kelini bilan dardlashgani holda o'zining taqdiri ham kelini taqdiriga o'xshash ekanligini aytadi, lekin shu yoshga kirguncha kampir ham bu haqda birovga dardini yoymagan. Shundan bo'lsa kerak, yolg'izlik, yonida yori bo'la turib, o'zini yolg'iz his qilish dardini totgan kampirning toshdek qattiq bag'ri ortiq darajada yumshab, ko'nglida kuchli marhamat hissi uyg'onadi, onalar muhabbati bilan kelinning ko'zidan o'pib: "Endi sen mening o'z qizim bo'lding, endi senga sira ozor bermayman, endi sen ham kunduzgi ishlarni esingdan chiqarib yubor!"- deydi.

Hikoya so'nggida o'lgudek mast holda uyga Qodirjonni kirib kelishi tasvirlanadi. Hikoyani o'qigan kitobxonda kampirga nisbatan ham, kelinga nisbatan ham mehr uyg'onadi, chunki boshiga har qanday kun tushishidan qat'iy nazar, har bir o'zbek ayoli boshqacha yo'l tutmaydi, sabr bilan bunday har bir oilada bo'lishi mumkin bo'lgan vaqtinchalik ko'rgulikni yengib o'tadi.

Cho'lpon hikoyalarini o'qir ekanman, uning deyarli har bir hikoyasida ayol degan nozik hilqatning, o'zbek ayolining noyob fazilatlari, uning har qanday holatda ham ojiza ekanligi, soddaligi tasvirlanganini guvohi bo'laman.

Cho'lponning "Nonushta" hikoyasida esa o'zbek xonadonining faqatgina ayollar suhbatidan iborat ko'rinishi tasvirlanadi, bu hikoyada Fotima va uning yoshroq singlisi, ularning onasi Saodat kampir hamda kelin Parizodxon o'rtasidagi samimiy suhbat, ajoyib so'z o'yinlari asosiga qurilgan.

- Potishxon, qumg'oningiz qaynadimi?
- Salaybush, yaqinlashib qoldi.
- Endiyoq mushlashib ketadir, shu deganingizga!⁷

Hikoya ikki opa-singil o'rtasidagi ana shunday ajoyib so'z o'yini bilan boshlanadi va voqealar xuddi shu hazil tariqasidagi so'z o'yini bilan yakun topadi. Opa-singillar shunday hazillar bilan nonushta tayyorlashadi.

Salayxon nonushtaga qatiq betini olgani kirib hayallaydi. Saodatbu va Fotima so'rida nonushta qilib o'tirishganda kelinlari Parizod chiqib keladi. Saodatbu hijolat bo'lib darrov og'iz ochadi:

-Voy kelin, sizni nonushtaga chaqirish ham esimizdan chiqibdi. Manavi Potish o'lgur ham chaqirmagan ekan-da. Fotima kelinini nonushtaga chaqirmaganiga u bu bahonalarni ko'rsatadi. Oqko'ngillik, eslik Parizodxon bu kerak emas janjallarga o'zbekona ibo, hayo, aql bilan kaltagina qilib javob beradi:

Nonushtaga ham chaqiradigan mehmonmidim, nonushtani o'zim chiqib tayyorlamaganim uchun hijolat bo'lib o'tirbmanu ⁸deydi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, oddiygina o'zbek xonadonida tong otishi bilan boshlangan hayot, shiringina turmush, kampirning kelinga o'z qizlaridek munosabatda bo'lishi, qaynona-kelin munosabati, opa-singil munosabati hozirgi hayotimiz uchun ham namuna bo'lishi tabiiy.

“Nonushta” haqida fikr bildirgan N. Vladimirova unda adibning milliy xarakter yaratish, personajlar ruhiyasini ochish-u badiiy til imkoniyatlaridan foydalanish bobidagi mahoratinin yaxshi ochib beradi. Munaqqidning ta'kidlashicha, “kundalik turmush ilk bor Cho'lpon hikoyalarida badiiy in'ikos obyektiga aylandi”. Darhaqiqat, “Oydin kechalarda”, “Seni ko'p ko'rmasin”

⁷ Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik, 2 - jild- Toshkent «Akademnashr» - 2013. B.314.

⁸ Cho'lpon. Asarlar. 4 jildlik, 2 - jild- Toshkent «Akademnashr» - 2013. B.317.

hikoyalarda ham “kundalik turmushni poetiklashtirish” kuzatiladiki, N.Vladimirova Cho’lpon hikoyalari poetikasiga xos xususiyatlardan birini nozik ilg’ab olgan. Shu o’rinda olimaning “oddiygina ko’ringan kundalik turmush tasviri milliy hayot obraziga aylanadi” degan xulosasiga ham to’xtalib o’tish zarurati yuzaga keladi. Gap shundaki, o’sha obraz vositasida aytilayotgan fikr, ifodalanayotgan badiiy konsepsiya masalasida turlichalik mavjud. Xususan, professor Ozod Sharafiddinov muallif nigohi “o’zbek xonadonining ichkarisi” ga qaratilganini ta’kidlaydiki, undagi ayollar “katta hayotdan ajralgan holda, to’rt devor ichida, faqat bir-birlarining diydorlariga termulib, bu dunyoning huzur-halovatidan, rohat-far

Og’atidan mahrum holda umrguzaronlik qilishga majbur.

Cho’lponning ayol obrazi ifodalangan asarlari qatoriga hech ikkilanmay “Kecha va Kunduz” romanini ham kiritishimiz mumkin. Ushbu asarda Cho’lpon olamga hayrat ko’zi bilan qaraydigan sodda, samimiy Zebi va umri to’rt devor orasida o’tayotgan, na tirikchilikdan, na erdan yalchigan Qurvonbibi singari timsollar haqqoniy va jonli tasvirlangan. Cho’lponning mahorati shundaki, asarda unchalik katta o’rin tutmaydigan epizodik personajlarni ham g’oyat puxta tasvirlaydi.

Asarda Zebi ishtirokidagi voqealar tasviriga ko’p o’rin berilgan, asardagi ko’pchilik personajlar shu timsolga daxldor tarzda chizilgan bo’lsa-da, uasarning bosh qahramoni emas. Negaki, u asar voqealari rivojini boshqarmaydi, balki ixtiyorsiz tarzda, qayoqqa borayotganini, nima bo’larini bilmagan holda hayot oqimida suzadi. U biron-bir holatning kelib chiqishiga ongli tarzda, bilib turib sabab bo’lmaydi. Uning boshqalar hayotiga ta’sir ko’rsatgan xatti-harakatlari ham o’zining ixtiyoridan tashqarida sodir bo’ladi.

Adibning mahorati tufayli mut’e, hech qanday ijtimoiy salmogi yo’q Zebi o’z soddaligi, husni, odobi, iffati, noyob iste’dodi bilan o’quvchilar mehrini

qozonadi. Cho'lpon qizni o'z tabiati mantig'iga muvofiq harakatlantiradi. U quvlik-shumlikni bilmaydi, taqdirga tadbir qilishni xayoliga ham keltirmaydi. Zebi – tom ma'noda o'zini "muhitning erki" ga bergan o'zbek qizi. Yozuvchi uni boricha ko'rsatadi. Qizig'i shundaki, adabiy qahramonlarga qo'yiladigan talablarning bir dunyosiga javob berolmaydigan bu qiz insoniy beg'uborligi, o'zbekcha soddaligi bilan kishini o'ziga rom etadi.

Sotsialistik realism talabiga ko'ra, adabiy qahramonlar hayotida dinamika bo'lishi, ya'ni ularning asar davomida bir qadar bo'lsa-da, o'sishi kerak. Zebi esa, shuncha sinovlardan so'ng ham romanga qanday kirib kelgan bo'lsa, shu holicha qoladi. Faqat baxtsizligi miqdori ko'payadi, azoblari darajasi ortadi, aybsiz aybdor bo'ladi, xolos. Lekin bu hol uning jozibasiga soya tashlamaydi.

Zebi – o'zbek ayoli timsoli. U vaziyatga ta'sir ko'rsatishni, nobop hayotga qarshi isyon qilishni xayoliga keltirmaydi. Boshqa qizlarga xos quvlik qilishni ham bilmaydi. Zebi – go'dakday beg'ubor bo'lgani uchun ham bag'ri ifloslik va kirlarga to'la hayot uni sig'dirmaydi. Shudringday toza va chechakday pokiza bo'lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo'y havosi qizni darrov so'ldiradi. So'ldiribgina qolmaydi, balki unga jinoyatchi qotil yorlig'ini yopishtiradi. Chunki kirlik va jaholat tozalik va go'zallik bilan kelishmaydi, ezgulikning yashashiga imkin bermaslikka urinadi.

Zebi – hurkak ohu singari go'zal va ilojsiz. U eng yaqin kishisi bo'lmish otasidan yovdan qo'rqqanday qo'rqadi. Ammo uni yomon ko'rmaydi. Otasi qatori, ammo undanda johil, undanda xunuk kimsaga xotin bo'ladi va bu qismatga ko'nikadi. U mingboshining o'zga ayollari singari na merosga ega bo'lishni, na boylik orttirishni, na o'ynash topib ishrat qilishni o'ylaydi. U taqdirga tan beradi, xolos. Lekin taaqdirning adolatsiz o'yinini qarangki, Akbarali ayni shu begunoh qiz qo'li bilan o'ldiriladi. Zebining suddagi holati, ro'y bergan hodisani mutlaqo tushunib yetmagani, o'zidan nima so'rashayotganini, nima talab qilishayotganini anglamaganligi, Sibirga surgun qilingani haqidagi hukmni eshitgandan so'ng³⁵

ham qismatini emas, balki uyga qanday yetib olishini o'ylashi kabi o'rinlarda Cho'lponning tasvir qudrati bor bo'yi bilan namoyon bo'lgan. Shunday manzaralar tasviri o'quvchini qizga taqdirdosh, qismatdosh, darddosh qilib qo'yadi, uning har bir nafasini xavotir bilan kuzatishga majbur qiladi.

Asarda Zebi taqdiri mantiqiy yakuniga yetmaganday ko'rinadi. Chunki hayotning yakuni yo'q. Unda qancha tasodif-u noma'lumliklar turgani yolg'iz Yaratganga ayonki, asardagi tugallanmaganlik ana shunga qilingan ishoratdir. Ko'rinadiki, "Kecha va kunduz" kishini o'yga toldiradigan, kecha, bugun va erta haqida, inson umrining mazmuni to'g'risida fikrlashga undaydigan asar bo'lib, yoshlarning milliy ma'naviyatini shakllantirishida muhim o'rin tutadi.

Cholponning "Qor qo'ynida lola" deb nomlangan hikoyasi syujeti ham Kecha va kunduz romani syujetiga o'xshash, hikoyadagi endigina o'n sakkiz yoshga to'lgan Sharofatxon taqdiri ham Zebi taqdiriga o'xshash. Yoshgina Sharofatxon xuddi Zebi singari yosh, aqlli, iboli, hayoli bo'lishiga qaramay otasi ra'yiga qarshi bir so'z aytolmaydi, otasi ko'ziga tik boqolmaydi, otasiga men sizdan ham katta, yoshi ulug' odamga turmushga chiqolmayman deyolmaydi, chunki o'sha davr sharoiti shunday edi.

Adib bu hikoyasi orqali o'sha davr tuzumi, sharoiti, ayollarni ozodligi, erkini ochib bermoqchi bo'lgan.

Endigina o'n yetti yoshga to'lgan, hali hayot neligini to'liq anglab yetmagan Sharofatxonning yoshi bir joyga borib qolgan cholga turmushga chiqishi budahshat.

Adib ushbu hikoyasi orqali o'sha davr ijtimoiy muhitini ochib berish bilan birga kitobxon e'tiborini o'ziga jalb qilgan Sharofatxonning tarbiyasi, otasining har bir so'zi farzand uchun qonun ekanligi, uning ibo, hayosini ham ko'rsatib bergan. Xolbuki, Sharofatxon Samandar akaning bitta-yu bitta qizi edi. Bu qiz shu tegranning ko'rkilikda, chevarlikda, sho'xlik va o'ynoqilikda bitta-yu bittasi edi.³⁶

Mahalla-ko'yning o'spurunlaridan ikkita-uchtasi bir yerga yig'ilsalar, topg'an-tutg'anlari shul Sharofatxon masalasi bo'lur: " Bu qiz qaysi xudo yarlaqag'anniki bo'lur ekan?" deb bosh og'ritarlar edi.

Hikoyada otasi Samandarning sharoiti tufayli eshonga sovg'a sifatida berib yuborilayotgan Sharofatxonning munosabati ifodalanmagan, bu ham meni fikrimcha o'sha davr kamchiligi sifatida ko'rsatilgan bo'lsa kerak. Hikoyaning "Qor qo'ynida lola" deb nomlanishi ham bekorga emas. Chunki Sharofatxon hali o'n gulidan bir guli ham ochilmagan misli bir chechak, uni gulga, ko'klamga mengzashimiz mumkin, biz bilamizki qish, qor kabilar insonni keksa davriga qiyoslanadi, lola hech qachon qish faslida ochilmaydi, u bahorning ilk kunlarida ochiladi, eshonning nabirasi qatori bo'lgan yosh Sharofatxonga uylanishini xuddi qor qo'ynida ochilgan lolaga oxshatishimiz mumkin.

II. 2. Yozuvchi hikoyalaridagi inson shaxsi va psixologiyasi talqini

Cho'lponning "Qurboni jaholat hikoyasi" Behbudiyning "Padarkush" pyesasi ta'sirida yozilgan: "O'qimagan, savodsiz ikki yigit o'g'irlik qiladi-yu qilmishlarini boshqa bir begunoh yigitga to'nkaydilar. Tuhmatga qolgan yigit jaholat qurboni bo'ladi – u o'zini-o'zi o'ldiradi.

Hikoya qahramoni Eshmurod ilmga chanqoq, hurfikrli shaxs. Har bir farzand kabi otasi otasini aytganini qiladigan, otasiga gap qaytara olmaydigan, otasidan qo'rqadigan yigit. U kecha kunduz o'ylabdi-ki, shu jaholat va nodonlikning uyasi bo'lgan hovlidan qochib boshqa bir shaharga borib o'qisa. Nodon otasining ra'yiga qarabilmdan bebahra holda hayvon bo'lib qolishning yomonligini bilsa ham ilojsizlikdan sabr qiladi. Eshmurodning tabiatida ishonuvchanlik odamni yaxshi-yomonga ajrata olmaslik kabi hislatlari bor. Eshonning o'g'li Mo'min uyiga kelganda soatni yashirib qo'ymoqchi bo'ladi. Mo'minning aldoviga ishonib, otasiga sovg'a qilib berilgan soatni sovg'a qilib₃₇

yuboradi. Shu kunlarni birida Mingboshinikiga chiqqan Eshmurod aybsiz bo'lsa-da, aybdor bo'lib qoladi, ya'ni Mingboshining tilla soati o'g'risiga aylanib qoladi. O'ta ruhiy iztirob oldida ojiz qolgan Eshmurod ko'p xafaladi, aqldan ozmoqlikkacha boradi. Eshmurod psixologiyasida kurashuvchanlik, o'zini oqlash uchun harakat sezilmaydi. Jaholat botqog'iga botib qolgan Eshmurod tabiatidagi tushkunlik va umidsizlik hatto yig'loqilik ohanglari ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu holatlar oxir-oqibatda Eshmurodni o'zini-o'zi 'oldirishiga olib keladi. kitobxon bu holat haqida har xil fikrga boradi. Ko'plar Eshmurodni ayblaydi. U aybsiz ekanligini isbotlashi kerak desa, ba'zilar buni eng so'nggi chora sifatida qabul qiladilar. Eshmurod hayotiy kurashlarda chiniqmagan, g'oyaviy e'tiqodlari toblanmagan bunday voqea qarshisida sarosimaga tushib qoladi.

Hikoyada Eshmurod tilidan aytilgan mana bu gaplar balki u o'zi hayotning mana shunday fojeali tarzda yakunlashini, jaholat qurboni bo'lishini oldindan aytilgan daragidir.

“Bu bizning Turkistonimiz g'aflatdan uyg'onurmu? Yo'qmi? Biz bunday holda bo'lsak bitamiz... inqiroz topamiz... O'qiganlarimizni kofirga hukm qilamiz. Ammo o'z bolalarimizning odati yaxshiyonalariga degan so'zimiz yo'qdir. Biz bu holda bo'lsak, kishi qatoriga sanamaylar. Yovrupo'lilardan odati qabihalarini kasb qilurmiz. Ammo madaniyat funun va sano'lariga ko'z yumib tururmiz. Biz odam bo'lmaymiz... bitamiz... inqiroz bo'lamiz...oh jaholat...jaholat !!! Bitduk, bitduk... o'lduk, tirilmaymiz “.

Cho'lpon hikoyarining mavzu ko'lami ancha keng, lekin shunga qaramay unda ikkita mavzu markaziy o'rinni egallaydi. Bularning birinchisi o'zbek ayoling taqdiri, uning o'tmishi va buguni, uning erki uchun, ijtimoiy qadr- qimmmati uchun kurash mavzusidir. Aytish kerakki, 20-yillarda bu mavzuda Cho'lponchalik hech kim qalam tebrata olmagan. U yuksak badiiy formada to'g'ridan-to'g'ri kitobxon qalbini zabt etadigan ohanglarda o'zbek ayollarining o'tmishdagi nochor ahvolini tasvirlagan. Uning bu asarlari teran insoniy mavzu bilan sug'rilgan bo'lib, o'zbek38

ayolining ma'naviy yuksakligini tarannum etadi. Yozuvchining "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola", "Seni ko'p ko'rmasun", "Nonushta", "Novvoy qiz" kabi va boshqa bir qancha hikoyalarida ayollar obrazi yuksak mahorat bilan yoritilgan.

"Seni ko'p ko'rmasun" hikoyasida hameridan ayrilgan, ham bolasidan ayrilgan mushtipar bir ayol va qaynonasining ruhiy iztiroblari tasvirlangan. Xadichaning eri Roziqjon yosh va g'ayratli, yoshligidan beri tinchlikni sevib katta bo'lgan, kuch va quvvatini, g'ayrat va harakatini butun yerga bag'ishlagan yigit. Daladan qaytayotganda beklar tomonidan o'ldirilganda Xadichaxon va kampir og'ir bir iztirob ostiga tushadilar. Bunday holda ko'pchilikda bo'ladigani kabi Xadichaxon ham avvaliga tushunmadi na yig'i keldi na boshqa, boshi qotdi. Eriga bo'lgan mehr-muhabbat, uning yodi bilan yashayotgan Xadichaxon va ona bir tomondan ham boquvchilaridan ham boshlarida balo-qazolardan asraguvchi soyabonlari yo'qligidan azob chekishardi. Xadichaxon yigirma uchga kirgan navnihol ayni kuchga to'lgan, ikki bolali ayol, lekin uni hech kim uni yigirma uchda demaydi, bilmagan odam uni qari juvon, o'ttiz beshlarga kirgan bir xotin deydi. Uning aqli hushi ham joyida emas, qishloq bolalari "Xadi jinni" deb ot qo'yganlar. Bolasini shaharga qatiq sotib, go'sht olgani jo'natgan ona, bolasining taqdiri ham xuddi otasiniki kabi ayanchli tugashini qayerdan bilsin. Sevikli yoridan ayrilishdek bir musibatni boshidan o'tkazib turgan ayol uchun bunisi juda katta fojia bo'ldi. U har kuni dalaga chiqib ishlayotgan dehqonlarni ko'rib roziqjonni eslaydi. Eri uchun tut tagida choy qaynatib, zog'ora non bilan unga olib borishni qo'msaydi. Farzand ham xuddi otasidek ayanchli o'lim topgandan so'ng, o'tayotgan kechalarni kampir bilan kelin bir do'zah azobida o'tkazilar. Xadichaning barcha orzu-umidlari shu qolgan kichik o'g'lidan. U ham betob, bezgak kasaliga chalingan, bezgakdan qaltirab yotgan bolasini zaxarlik ko'z yoshlari to'kib turib, bag'riga bosadi-da:" Bitta-yu bittam yolg'iz qo'zichog'im, Xudoyim seninggina ko'p ko'rmasin",-deydi. Bu yerda onalik muhabbati,

farzandi uchun jonini fido qiladigan mushtipar ayol tasviri zo'r mahorat bilan tasvirlangan.

“Oydin kechalarda” hikoyasi ham hayotiyligi, g'oyaviy teranligi va badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Bu hikoyada ham qaynona va kelinning qalbidan o'tgan iztiroblar, ichki tug'yonlar yozuvchi tomonidan ishonarli tarzda yoritilgan. Yangi kelinning hamma ayollardek yashamayotganligi, risoladagidek uyt bekasi bo'la olmaganligi, birdan bir sabab qilib kuyov Qodirjon ko'rsatiladi. Yozuvchi hikoyada Qodirjon obrazini ko'p ham tasvirlamaydi, faqatgina uning o'lgudek mast va tentiraklagancha uyga kirib kelishi, shu holda ruschalab g'ulduranishi ko'rsatiladi. Kampirning uyqudan uyg'nib ketishi, yaqin bir yerdan hasratlik, ko'ngil buzadigan bir yig'i tovushi kelishi, hikoyadagi ayollar munosabatiga sabab boladi. Kampir buyig'layotgan ayolni qo'shninig kelini deb o'yladi. Uning qandoq g'amlari bordir. Kampir o'z kelini haqida o'ylarkan, uyjoyi, kiyim-kechagi, novdadek kuyovi bo'la turib, uy-ro'zgor ishini qilmasligidan, shunday yomon qizni otasi berganidan, onasi o'stirganidan norozi qiyofada o'rnidan turdi. Kampir o'z kelini bilan dildan suhbatlashmagan, undan ayb axtarib, ko'p adabini bergan, yig'latgan. Kampir yig'lagan ayol o'z kelini ekanini bilgandan so'ng, sababini so'raganda, kelin to'lib toshgan holda, kuchli va qo'rqinch bir tovush bilan “Onajon!” deb baqirdi va qaynonasining – kampirning quchog'iga otiladi. Kelinning o'z qadr-qimmatini uchun yig'ayotganini bilgandan so'ng kampirning qurigan ko'zlariga yiroq yiroq yerlardan ikki tomchi yosh keladi. butun tanini bosib, ezib, sidirib kelgan u ikki tomchi yoshni yengi bilan artgandan so'ng:” –Otasi ham shundoq, qizim...” – dedi.

Shu so'zdan keyin ikkalasi ham uzoq vaqt jim bo'lib qoladilar. Kampirning ko'z yoshi kabi yuzlari urilib tashlangan guldek so'lgan, toshdek bag'ri ortiq darajada yumshagan ko'nglida kuchli marhamat hissi uyg'onadi. Kelinning qizargan, charchagan ko'zlariga tikilib turad, onalar muhabbati bilan ko'zidan o'padi. Endi sen mening o'z qizim bo'lding. endi senga sira ozor bermayman.

Endi sen ham kunduzgi ishlarni esingdan chiqarib yubor, –deydi. Qaynona va kelinning taqdiri o'xshashligi, bu ikki ayolning bir xil voqeadan azob chekkanligi ular o'rtasidagi munosabatni iliqlashtiradi. Ona va qiz o'rtasida bo'ladigan samimiy muloqotlar, sirdoshlik, dardlashish kabi munosabatlar yuzaga keladi. Yozuvchining maqsadi ham aslida shu bo'lsa kerak.

Cho'ponning o'zbek ayolining taqdiri, uning erki uchun kurash mavzusi yoritilgan asarlaridan yana biri “Novvoy qiz” hikoyasidir. Hikoya o'lim to'shagida yotgan onani novvoychilik ortidan halol luqma bilan boqayotgan yosh, sodda qizning qassob O'lmasboy Abduqodir tomonidan tahqirlanishi, uning insoniy tuyg'ulari poymol qilinishi haqida. Hikoyada qiz tuyg'ulari dengizga, O'lmasboy esa qirg'oqqa o'xshatilgan. Dengiz shu qadar buyukligi bilan hamma vaqt qirg'oqdan yengiladi. Achchig' kelganda, g'azabi qaynaganda zo'r-zo'r to'lqinlar, kichik-kichik mavjlarni qirg'oqlarning tosh-metin gavdasiga qarab o'tadi. Qirg'oq yuqorilarga ko'tarilib ketgan manman qirg'oq koshki pinagini buzsa. Qizning tabiatida yengiltaklik, birovga ko'z suzib gapirish kabisalbiy xislatlar yo'q edi. U ojiza, olti yil davomida ham erkak, ham ayol bo'lib ro'zg'orni tebratgan halol, ma'suma, pok qiz edi. Qirg'oq uni o'z domiga tortdi. Qizning keying hayoti ham kelishmadi. Oradan ikki yil o'tmasdan bechora qiz ikki marta erga tegib chiqdi. Ilgari uning yoshligi, husni, tozaligi, bir oz umidi bor edi, endi u narsalardan hech biri qolmadi. Erdan ajraganda ustiga bir qator kiyimi, boshida “Xudo urgan” bir paranji-chimmati bor edi. Undan ikki-uch oy o'tgach paranji-chimmat ham tashlandi. Endi eski, yirtiq bir qator kiyim, ezilgan yurak, charchagan gavda, gangigan esgina qoldi... Ayol zamonning, muhitning qurboniga aylandi. Bularning hammasi uning soddaligidan edi. Uning psixologiyasida ishonuvchanlik, o'ta soddalik, hammani o'zi kabi halol, pok deb o'ylash bor edi. Shu sabab manfur qabih O'lmasboyning uyiga non sotgani bordi va katta xatoga yo'l qo'ydi. Shu bilan birgalikda unimng harakterida kurashish, o'z qadr-qimmatini oyoq osti qilgan larni jazolash kabi hislatlar ham namoyon bo'ladi. Sud ishi boshlanganda dengiz

– qiz qullarday jim turib so’zladi. Qirg’oq –O’lmas tog’larday tinch turib tingladi. Qirg’oq ag’darildi. Dengiz ya’ni qiz g’alaba qozondi.

2. 3. Cho’lpon hikoyalarida mavzu va g’oya uyg’unligi

Cho’lpon XX asr o’zbek adabiyotining eng mashhur namoyandalaridandir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli hamma turi bilan faol shug’ullandi. She’r, hikoya, roman, drama, tankqid, tarjima — hammasida ijod etdi. Lekin, birinchi navbatda, yangi o’zbek she’riyatining asoschisi bo’lib tarixga kirdi.. Voqelik uning uchun ham asosiy tasvir obyekti, ham uni baholaydigan mezon edi. She’riyat hech qachon kundalik xalq hayotiga bu qadar yaqin kirib bormagan edi. Xalq xayotida yuz bergan har bir hodisa unda o’sha zahotiyoq aks sado topdi. Har bir hodisa Vatan va Millatning manfaati nuqtai nazaridan yoritildi. Zamon qorishiq edi. Bir tomondan, mustabid chor hukumati qulab, tarix mustamlaka zulmini tortib kelgan millatlarga o’z mustaqilliklarini o’rnatish uchun buyuk bir imkon berdi. Ayni paytda, sho’rolar ijtimoiy ozodlikni bayroq qilib, mehnatkash Turkiston qalbini zabt etmoq uchun kurashni kuchaytirdilar. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, «Sadoyi Turkiston»ning 1914-yil 29-aprel sonida chop etilgan «Qurboni jaholat» hikoyasi Cho’lponning birinchi nasriy asaridir. Dastlabki asarlari «Abdulhamid Sulaymon», «Abdulhamid Sulaymoniy» imzolari bilan bosildi.Cho’lpon asarlari uch tomligining nashr qilinishi va bulardan ikkitasining o’quvchilar qo’liga tekkanligi muhim hodisa bo’lib, muallif ijodi haqida fikr yuritishga bimalol imkoniyat beradi. Adib uch jiddligining 2-jildiga uning mashxur «Kecha va kunduz» romani bilan birgalikda turli davrlarda yozilib chop etilgan 13 hikoyasi kiritilgan. Ular orasida 1914-yilda e’lon qilingan ilk hikoyalari «Qurboni jaholat» va «Do’xtur Muhammadyor»dan sovet davrida bosilgan «Kileo’patra» gacha bor.

«Qurboni jaholat»da Eshmurod degan yigitning fojiali taqdiri hikoya qilinadi. Eshmurod – o’qimishli yigit. Hamma yoqda jaholat. Hatto o’z otasi uni gazeta o’qigani uchun masxara qiladi. Maktab, ilm-fan, ibrat olish degan gaplarga⁴²

millatning toqati yo'q - Eshmurodga mana shu tashvishlar tinchlik bermaydi. Uning ustiga bir voqea yuz beradi-yu Eshmurodning hayoti ostin-ustin bo'lib ketadi. Eshmurodlarnikiga uning yoshlikdagi tanishlaridan Mo'minjon keladi. Ko'zini shamg'alat qilib, otasining soatini o'marib ketadi. Otasiga esa yaqin do'sti Nazarali so'fi hadya qilgan edi. Mo'minjon ketishi bilan izma-iz ular kirib keladilar. Gap aylanib soatga kelib taqaladi-yu, uning yo'qolgani ma'lum bo'lib qoladi. Izza bo'lgan ota o'g'liga dashnom berish bilan kifoyalanmaydi, kaltaklaydi. Eshmurod nomus kuchidan yotib qoladi. Bir oycha yotib, bir oz tuzalgach, qo'shnisi mingboshining bog'chasiga chiqib, gazeta varaqlab o'tirganda yana shunday voqea yuz beradi. Mingboshi uni gazeta o'qitish uchun mehmonxonasiga taklif qiladi. O'yinqaroq yoshlardan biri kelib, bu gal mingboshining qoziqqa osib qo'yilgan tilla soatini o'g'irleydi va uning tuhmati Eshmurodga tushadi. Xech bir gap-so'z yo'q, mirshablar bostirib kelib, uni qamamoqchi bo'ladilar. Bularga chiday olmagan Eshmurod o'zini otib, nobud qiladi. Bir-ikki kundan keyin taftishlar chog'ida o'g'ri aniqlanadi, lekin vaqt kech edi. Shu tariqa u jaholat qurboni bo'ladi.

Asar badiiy jihatdan zaif, albatta: voqealar sun'iy, til ishlanmagan, dramatism nochor. Lekin bu hikoyasida voqelikni mahzun, faje' idrok etish, Turkiston musibatini teran anglashga intilish seziladi. Aslida Eshmurod o'zini-o'zi emas uni jaholatga berilgan kimsalar qurbon qildi. Eshmurod juda dunyoviy bilim egallashga intiladi. Hatto o'z uyiga odam kelganda ham ularning eskicha, qoloq fikrlarga burkangan g'oyalariga quloq tutishni xohlamay o'sha paytda ham gazeta o'qiydi. Bu hikoya badiiy jihatdan mukammal ishlanmagan. Voqealar kechayotgan jarayondagi holatlar va atrof-muhit yaxshi tasvirlanmagan. Hikoya mavzusi juda o'rinli tanlangan. Hikoyada rus bosqinchilari tomonidan ilm-ma'rifat madaniyatni poymol qilinishi va buning natijasi XX asr boshlariga kelganda xalqni qanday tubanlikka olib kelganligi bu holat ziyoli kishilarga nisbatan haqiqiy jaholat bo'lganligi tasvirlanadi. Hikoya g'oyasi esa ushbu jaholatni tasvirlab berilishida

juda o'rinli tanlangan. Ilm tarafdori bo'lgan Eshmurodni fikrlari, intilishlari otasi tomonidan tan olinmagan. Ustiga-ustak unga tuhmat balosi yog'ildi. Bunday g'oyalar ketma-ketligi va bu ketma-ketlik mavzuni to'la yoritishga xizmat qiladi.

“Do'xtur Muhammadyor”da bir oz nur bor. Muallif ma'rifatchiligi bir qadar yorug' bo'yoqlarda aks etgan. Hikoya markazida Muhammadyor taqdiri turadi. U 15 yoshida otasi bilan hajga borib, bir dunyo sarguzashtni boshidan kechirgan Hoji Ahmadning o'g'li. Xoji Ahmad inson saodati ilm-ma'rifatda ekanligini yaxshi anglaydi, bir guruh johil qimorbozlar qo'lida jon berarkan, o'g'liga o'qishini tayinlaydi. Muhammadyor otasi qotillaridan o'ch olmaydi. Hammasiga aybdor jaholat ekanligini tushunib yetadi va bor kuchi bilan o'qishga beriladi. Jamiyati xayriya vositasi bilan dastlab Bokuda gimnaziya, so'ng Petrograd universitetida, nihoyat 7 yil Shvetsariya dorilfununining tibbiyot fakultetida o'qiydi. Yurtiga qaytib kelib, bilimi orqasidan obro'-e'tibor topadi. Xususiy shifoxona ochib, kambag'allarni tekin davolaydi. “Vatan” nomli jurnalni, “Xabar” degan gazetani yo'lga qo'yadi. Oddiy Muhammadyordan “Do'xtur hodimi millat Muhammadyor” ga aylanadi.

Muhammadyor doktorgina emas, qalam egasi hamdir. Petrogradda ekan, aziz umrlari samarsiz kechayotgan madrasa talabalari turmushidan “Umrlik shogirdlar” degan roman yozadi va rus tiliga tarjima qilinadi. Talabaligining so'nggi yilida esa, Moskva va Petrograddagi turkistonlik maskovchi boylar hayotidan “Poytaxt mehmonlari” nomli bir teatr kitobi yozib, “tilsiz”, ilmsiz, madaniyatdan uzoq boyonlarimizning ko'cha-ko'yda, mehmonxona nomerlarida ajnabiylar tomonidan haqorat qilinishlarini ko'rsatib beradi. Uni o'zi ruschaga tarjima qiladi. Poytaxt teatrlaridan birini ijaraga olib, talaba o'rtoqlari bilan sahnaga qo'yadi. Bosh rol – ho'jayinni o'zi o'ynab, olqishlar oladi. Ko'rinyaptiki, Cho'lpon XX asr boshidagi Turkistonning peshqadam kishisi deganda, zamonning mana shunday hamma masalalariga javob bera oladigan, barcha jabhada elning koriga yaraydigan shaxsni tasavvur etadi. Muhammadyorning barcha xatti-

harakatlarini boshqarib turgan kuch uning el-yurtiga muhabbatidir. Bir tomonda, pul topib, aql topmagan boylarimizning o'z sarvatlarini qimor va faxshga sarflab, mol-mulkklarining ajnabiy kelgindilar qo'liga o'tib borishi, ilmsiz mast-alast boyvachchalarning o'zaro talashib, burnilaridan narini ko'ra olmasliklari, ikkinchi yoqda, taxqirlar, xaqoratlar Muhammadyorni qattiq iztirobga soladi. Darhaqiqat, uning nazdida millatni maxv etgan eng buyuk illat jaholatdir. U poezdda Vatanidan olislab ketar ekan, buyuk bobolarini qurgan bobo torlarga qarata nido qiladi. Ularni ko'zlarini ochishga u zamon bilan baravar qadam tashlashga chaqiradi: "Ey vatandoshlarim! Qachongacha bu g'aflat? Nimaga buncha xushyormassizlar? Ahir, sizlar ham odam-ku! Odamlardek harakat qilingizlar! Ko'z oldingizga kelub turg'on ilm va ma'rifat mevasidan foydalanmasdan nimaga og'izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqudan ko'z ochinglar! Uyqudan ko'z ochinglar! Urininglar! Ilm, ma'rifat va hunar izlanglar! Vaqt yetdi, balki o'tdi!"

Uzoq yillar Evropada yurib, Turkistonga qaytar ekan, poyezdda yana o'sha eski manzaraga duch keladi: "vagon ichida pish-pish uxlagan va bilet yo'qotub kandukturlardan tayoq yegan betartib" millatdoshlari... Muhammadyor chiday olmay, tanbarga chiqadi. Ko'ziga maftunkor vatanning manzaralari uriladi. Yo'q, bular Shvetsariyadan mutlaqo qolishmaydi. Mahsuldor tuproqlarining esa, Amerikanikidan hech bir kamligi yo'q...Uning hayolidan shular o'tadi: "Xalq o'z foydasini anglasa, milliy maktab va madrasalar ochsa, Ovrupo dorilfununlariga bolalarini yuborsa, do'xtur, advokat, muharrir va hunarmand, savdogarlar va muhandis(injener)lar chiqsa, bularning har biri o'z vazifalarida turub ishlarin tartibi ila yurguzsalar va xalqimizning foydasini kuzatsalar, naqadar oliy va naqadar go'zal bo'lur edi..." Lekin bu hayollar shu ondayoq shubhaga g'ark bo'ladi, yana jonlanadi. Agar shunday fikrli odamlar har shaharda bo'lsalar, albatta, amalga oshadi, deb o'ylaydi. Vataniga qaytgach, g'ayrat bilan ishga

kirishadi va ko'p narsaga erishadi. Xususiyl shifoxona va magazinlarga mehnati, tadbirkorligi bilan qonuniyl asoslarda erishadi.

Ko'ringanidek, hikoya ma'rifiyl darajada qolgan, badiiylikka ko'tarilgan emas. Asosiyl sababi bayonchiligida. Tasvir deyarli yo'q, ya'ni Cho'lpon hikoyada badiiyl tasvirdan ko'ra mavzuni yoritib berishga e'tiborini qaratadi. "Qurboni jaholat" hikoyasida qancha ilm olishga harakat qilmasin baribir jaholat qurboni bo'lgan shaxs tasvirlangan bo'lsa, bu hikoyada qancha jaholat va razolat bo'lishiga qaramay ilm, ma'rifat yo'lidan qaytmagan, oxir oqibat komillik va o'z murodiga yetgan shaxs tasvirlanadi. Bu hikoyada ham ilm-ma'rifatni yoyish masalasi, jaholatga qarshi kurash tasvirlanadi. Asar g'oyasi ham o'ziga xos tarzda qurilgan. Yuqoridagi ikki hikoya mavzu jihatidan deyarli bir xil, lekin asar go'ya jihatidan farq qiladi. "Do'xtur Muhammadyor" hikoyasidasidagi g'oya juda teranlik bilan shakllantirilgan. Bunda Muhammadyor faqatgina o'zi ilm-ma'rifatga erishibgina qolmasdan o'zidan keyin barcha ishlarini davom ettiradigan yangi-yangi shogirdlarni tarbiyalaydi."Ko'z oldingizga kelub turg'on ilm va ma'rifat mevasidan foydalanmasdan nimaga og'izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqudan ko'z ochinglar! Uyqudan ko'z ochinglar! Urininglar! Ilm, ma'rifat va hunar izlanglar!" degan fikrlari va bunday g'oyalarga o'zi ham rioya qilganligi , ohir oqibat ilm-ma'rifatga erishganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu hikoyaning ko'lami juda ham keng, ya'ni mavzu o'rinli bo'lishi bilan birga hikoya g'oyasi, hikoya qahramonlari hayoti, faoliyati va shu birga asar yakuni ham yozuvchi mahoratidan dalolat beradi. Hikoyadan chiqariladigan xulosa esa har bir inson inson bo'lib tug'ilib biror ishni boshini tutishga kirishibdimi, demak, bu yo'lda u faqat o'ziga ishonmog'i va suyanmog'i lozim. Unga nisbatan har qanday qarshiliklar sodir etilganda ham o'z yo'li va intilishlaridan qaytmasligi lozim. Muhammadyor ham xuddi shunday qildi. Jaholat kishilari unga turli muammolarni keltirib chiqardi, unga ruhiyl zarba berdi, ya'ni otasini o'ldirdi.

Shunday vaziyatda ham u tushkunlik va qasos o'tiga berilmasdan, otasi ham tarafdor bo'lgan va vasiyat qilgan ma'rifat yo'lidan qaytmadi. O'ziga yarasha chuqur ilmlarni egallagan hikoya qahramoni hikoya so'ngida o'zi xohlagan orzulariga erishadi. O'nlab hatto yuzlab o'zi kabi ilimli yoshlarni shakllantiradi. Aslida, bir inson uchun hayot mazmuni ham ana shu edi. Cho'lpon bu hikoya orqali yana o'zi yashagan davrda ilm-ma'rifatga bo'lgan e'tiborning qay darajada ekanligini ko'rsatib o'tmoqchi ham bo'lgan. Jadid vakillari tomonidan tashkil etilgan tashkilot tomonidan yoshlar chet davlatlarga o'qish uchun yuboriladi. Shu yo'l bilan jadidlar yoshlarni ilimli qilishga bo'lgan harakatlarini namoyon qilgan.

“Qor qo'ynida lola” hikoyasida esa Samandar aka ilgaridan ot chiqargan bir savdogar edi. Og'irchilik yillarida, qiymat, kasod vaqtlarida ishini taraqlatib kelib, oxiri o'zgan yili erta bahorda singan edi. Bor-yo'g'ini qarzig'a sotib berganidan so'ng, juda so'fi bo'lib eshonlarnikida chuvalashib qolgan edi. Erta bilan saharlab eshonnikiga ketar, zikr bo'lsa-bo'lmasa eshonning ishini qilib, kechqurun shomlatib uyiga kelar edi. Uyga kelgandan so'ng ham bir qoshiq quyuq-suyug'i bo'lsa totinib, malla joynamozning ustiga chiqib o'turib, qahrabo tasbehni necha davr aylan-tirib “vazifa”larini o'qur, so'ngra to yarim kecha-sahargacha ho'ngur-ho'ngur yig'lar edi...Bir kuni erta bilan xonaqohning mehrobi oldi-da hazrat eshon o'lturganlar, ikki yonlarida uchtdan olti hofiz, bir o'n besh chamasi muridlar...Eshon qutlug' boshlarini quyi solib “sukut”ga ketkanlar. Tashqarida to'polon, shovqin, biri qo'y yetaklagan» biri non ko'targan, biri kiyim sarmo... Bularning hammasi nazr edi.samandaraka uyiga qaytgach ko'nglida u ham eshonga nazr berishi kerak ekanligini o'yladi, lekin berish uchun arzigulik narsasi yo'qligi tufayli nima berishga o'ylanib uyiga qaytadi, shunda xotini Qumribush uyida sovchilar borligini aytadi. Samandar akaning Sharofatxon ismli bitta-yu bitta qizi bor edi. Bu qiz shu tegraning ko'rkilikda, chevarlikda, sho'xlik va o'ynoqilikda bitta-yu bittasi edi. Mahalla-ko'yning o'spirinlaridan ikkita-uchtasi bir yerga yig'ilsalar, topgan-tutganlari shu Sharofatxon masalasi bo'lar edi. “Bu

qiz qaysi xudo yarlaqag‘onniki bo‘lur ekan? Kimning uyini obod qilar ekan”,deb bosh og‘ritar edilar. Kelgan sovchilarga Samandar akaning rozilik berishi uning eshonga bo‘lgan hurmatidan edi. U xotiniga «Bitta qizimiz bo‘lsa, hazrat eshonimizg‘a tutdik, sadag‘alari ketsun!» degil!— deydi. To‘y ham o‘tadi. To‘ydan so‘ng eshonning eshigidan ikki yosh yigit chiqib,”Men qizg‘a achinaman, boyaqish kelib-kelib kimniki bo‘ldi-ya!.. deb otasiga hayron qolganligi haqida gaplashib ketayotganlarida bir burchakda ko‘cha poylab yotgan Mamat qorovul yig‘laganday qilib hushtagini chalib oldi-da:” Nimasini aytasiz, yigitlar, dunyo o‘zi shunday teskari dunyo ekan... Lolaning ustiga qor yog‘di!..— dedi. Yigitlar javob bermadilar va qorong‘ulik quchog‘iga kirib yo‘q bo‘ldilar...

“Qor qo‘ynida lola” hikoyasida ayol erkinining cheklanishini ko‘rishimiz mumkin. Lekin bu hikoyada ayollarning ichki kechinmalari deyarli aks ettirilmagan. Bu hikoyada otaning o‘y-fikrlari qisman yoritilgan, ya‘ni bu xususda ota haq edi. Xonadoni kasodga uchragan, zamon beshafqat bo‘lib turgan bir paytda qizi uchun birdan bir to‘g‘ri yo‘l shu edi. Hikoyada qizining o‘y-fikrlari ko‘rsatilmaganining qizning fikri mavhumligining ham birdan bir sababi zamon zaylidir. Qiz ham buni tushunib yetadi. Bu hikoyada birdan bir qabih, hammani nafratini keltirgan shaxs Eshon edi. Eshon obrazi orqali yozuvchi o‘sha davrdagi ko‘p xotinlik va din ulamolarining turli xil xatti-harakatlari ko‘rsatiladi. Hikoya mavzusi sifatida o‘sha davr illatlaridan biri tanlab olinadi, hikoya g‘oyasi ham mavzu bilan uyg‘unlashgan, lekin mavzu, ya‘ni voqealar rivoji to‘la yoritib berilmagan. Yozuvchi Eshon obraziga alohida to‘xtalmagan bo‘lsa ham uni qanday inson ekanligini qilmishlaridan bilib olishimiz mumkin. Ona va qizning kechinmalari deyarli yoritilmagan. Hikoya g‘oyasi va mavzuni aynan nimaga qaratilganligini hikoya so‘ngidagi ikki yosh yigitning suhbatidan anglab olishimiz mumkin. Cho‘lpon bu tarzda ish ko‘rishiga qaraganda o‘sha davrning bunday illatlari puldor din vakillari uchun oddiy hol bo‘lgan va nochor, bechorahol kishilar bunday holatga majburiy ixtiyoriy rozi bo‘lganlar.

“Seni ko‘p ko‘rmasun” hikoyasida esa yozuvchi xalq hayotidan, ya’ni. Farg‘ona hayotidan olib hayotiy voqeaga asoslangan holda yozadi. Hikoyada kattagina bir qishloqda o‘tib yotgan bir ro‘zg‘orda bolasini uxlatayotgan Xadichaxon degan yosh bir juvon hayoti aks ettiriladi.. Uxlab yotgan bola bo‘lsa, uning kichik o‘g‘li Is’hoqjon edi.Is’hoqjonning otasi Roziqjon o‘sha qishloqlik bir dehqon yigit bo‘lib, to‘rt-besh tanob yeriga o‘zi ishlab, besh-olti yildan beri shu ro‘zg‘orini aylantirib kelar edi.Ro‘zg‘or katta emas: bir xotuni, bir onasi, ikki o‘g‘li va bir o‘zidan iborat kichkinagina bir yig‘in edi. Inqilobdan bir-ikki yil burun yangi uylangan vaqtlarida ro‘zg‘ori yaxshi, tinch, bir xilgina o‘tib turgan edi. Inqilob bo‘lib, mana, ichki urushlar boshlanib, yurt urush maydoniga aylangandan keyin dalaga chiqib dehqonchilik qilish qiyinlashib, ro‘zg‘orni keldiratib olib borish ham juda og‘ir bo‘lib qolgan edi. Shunday bo‘lsa hamki, yosh, g‘ayratlik, lekin yoshligidan beri tinchlikni sevib katta bo‘lgan Roziqjon kuch va quvvatini, g‘ayrat va harakatini birga o‘n oshirib, bir qarich tuproq ustida ishladi. So‘nggi chog‘largacha ro‘zg‘orini tebratib keldi. Ro‘zg‘orning ichki hojatlari uchun ikkita sog‘in sigir, bitta qo‘shchi ot orttirdi. Shunday qilib, bu turmush o‘tgan yili shu chog‘largacha bir xilda davom etib keldi. Bultur shu vaqtlarda Roziqjon u... xuftongacha daladan qaytmasdan, kechikib qoldi. Xadichaxon zamonning tinchsiz vaqtlarida erining kech qolishidan qo‘rqsa ham, «bugun o‘roqni bo‘lsa, narigi jo‘gari tomong‘a suv bog‘lamoqchi edi», deb shu bilan o‘zini yupatib yurar edi. Yarim kecha — sahar bo‘ldi. Roziqdan xabar bo‘lmadi. Xadichaxon bilan qari kampir og‘ir bir iztirob ostig‘a tushgan edilar. Eshik ochgan kampir: "Voy bolam"lab yig‘lab kirdi. Ko‘ngli buzulgan Xadichaxon irg‘ib tashqariga chiqishi bilan uch erkakning qo‘llari ustida qora qong‘a bo‘yalib yotgan Roziqni ko‘radi!Bir nafas to‘xtab qoladi, na yig‘i keladi, na boshqa. Keyin o‘likni bo‘yraning ustiga qo‘yib ketayotgan kishilardan nimagapligini so‘raganda, ular yo‘lda beklar otib ketganligini aytadi.kunlarning birida kampir nevarasi Sobirjonni shaharga qatiq sotib, puliga go’sht olib kelish uchun yuboradi.Peshin bo‘ladi, kech kiradiki, Sobirjondan darak bo‘lmaydi. Kampir bilan kelin₄₉

talvasaga tushadilar. Darhol qo'ni-qo'shniga xabar berib, qo'shnining katta o'g'li Xolmatni otga mindirib shaharga yuboradilar. Xolmat u kecha qaytmaydi. Ertasi erta bilan Sobirjonning o'ligini ko'tarib Xolmat keladi. Yig'i-sig'i orasida so'raganlarga Xolmat yigit sira pinagini buzmasdan: shaharda otish bo'lganligini o'q tekkanligini, yo armanlar otib ketgan bo'lishi mumkinligini aytadi. Xadichaxon 23 ga qadam bosgan. Lekin hech kim uni 23 da demas edi, bilmagan kishilar uni qari juvon, 35 larga kirgan bir xotun deyishardi. Uning aqli, hushi ham joyida emas, qishloq bolalari: «Xadi jinni» deb ot ham qo'yib olishgandilar. Muning ahvolini yaxshi bilgan kishilarning hamma vaqt unga rahmlari kelar, «bechora juvon» deyishardi.

Bechora juvonning kichik o'g'li Is'hoqjon ham kasal. Bunday zamonda tabib, dor-i darmon ham topilmas edi. Bechora xotun bezgak changalida qaltirab yotqan bolasini zaharlik ko'z-yoshlari to'kub turib: — Bitta-yu bittam, yolg'uz qo'zichog'im, xudoyim senigina ko'p ko'rmasin!.. — deydur. Va tiqilgan, bo'g'ulgan nafasi bilan uzilib-uzilib yig'laydi...

Bu hikoyada o'sha davr siyosiy hayoti va inson kechinmalari, oddiy xalq hayoti mavzu sifatida tanlangan. Inson qadr-qimmatini ahamiyatsiz, zamon esa juda notinch bo'lganligi, hasrqadamda xavfning mavjudligi yoritilgan. Hayot sinovlariga duchor bo'lgan ona esa faqatgina Xudodan najod kutadi xolos.

Cho'lpon hikoyalarida o'zi yashagan davrdagi xalq hayotida ro'y berayotgan jarayonlar va ularga o'sha davr kishilarining munosabat masalalari asosiy mavzular qilib olingan. Bunday mavzular sirasiga davr kishilarining ilmsizligi, nafaqat ilmsizlik, balki ilm izlovchi boshqa kishilar faoliyatiga qarshilik, ayollarning kamsitilishi va haq-xuquqlarini poymol etilishini kirgizish mumkin. Jamiyatning bu kabi illatlarini umumiy olib jaholat deb ataymiz.

X U L O S A

Bitiruv – malakaviy ishini bajarishda quyidagi xulosalarga keldik;

1 .Birinchi bobning 1 faslida XX sar boshlari o'zbek adabiyotida nasr va uning ifodasi mavzusida I. A. Karimovning adabiyotshunoslik va badiiy adabiyot xususidagi fikrlariga to'xtaldik.

2. Birinchi bobning 2 faslida ozbek adabiyotida hikoya janri va bugungi kitobxon masalalariga e'tibor qaratildi. Ozbek adabiyotida hikoya janrinin shakllanishi, bugungi adabiy jarayondagi hikoyachilik masalalariga to'xtaldik. Hikoya janri qadimiy janrlardan biri bo'lib, asosan yangi davrning 20 yillaridan keskin rivojlanish bosqichiga ko'tarilgan. Bugungi kunda hikoya janrida ijod qilmagan ijodkor juda kam topiladi.

3. Birinchi bobning 3 faslida esa o'zbek adabiyotida Cho'lpon ijodining o'rganilishi masalalariga to'xtaldik. Cho'lpon ijodi ko'plam olimlar tomonidan o'rganilgan. XX asrning 20-30-yillarida Cho'lpon ijodi, asosan, qoralangan bo'lsa, so'nggi davrlarda, xususan, XX asrning 90-yillaridan boshlab shoir asarlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etishda xolislik tamoyillariga tayanildi. Shunga ko'ra, Cho'lpon ijodiga haqli ravishda yuqori baho berilgan. Chunonchi, Ozod Sharafiddinov, Baxtiyor Nazarov, Naim Karimov, Erik Karimov, Sherali Turdiyev kabi munaqqidlarning turli maqola va risolalarida Cho'lponning she'riy va nasriy asarlari hozirgi kun talablari darajasida tahlil etilgan. Cho'lponning ulug' va noyob ijodkor, xalqparvar va vatanparvar yozuvchi ekanligi ko'plab dalillar asosida ko'rsatib berilgan.

4. Ikkinchi bobda Cho'lponning obraz yaratish mahorati masalalarini tahlil qilindi. 1 faslda Cholpon hikoyalaridagi ayollar obrazi tahlilga tortildi.

Yozuvchining “Qor qo’ynida lola”, “Nonushta”, “Novvoy qiz”, “Oydin kechalarda” kabi hikoyalarida ayol obrazi, o’zbek ayolining sabr-matonati, samimiyligi, soddaligi ochib berilgan.

5. Ikkinchi bobning 2 faslida insin shaxsi va psixologiyasi talqiniga e’tibor qaratildi. Cho’lponning “Qurboni jaholat”, “Oydin kechalarda”, “Nobboy qiz”, “Seni ko’p ko’rmasun” hikoyalari qahramonlarining o’ziga xos ichki ruhiy olami tahlil qilindi.

6. Ikkinchi. bobning 3 faslida esa yozuvchi hikoyalari mavzu va goyasi xususida fikr - mulohazalar yuritildi. Cho’lpon davrning eng dolzarb muammolarini ko’tarib chiqqan, Cho’lpon hikoyalarida badiiy tasvirdan ko’ra mavzuni yoritib berishga e’tiborini qaratadi. Mazmundan kelib chiqadigan xulosa esa asarining mazmun – mohiyatini to’la ochib beradi, kitobxonni mulohazaga chorlaydi.

7. Xullas, Cholponning serqirra ijodi, mazmundor hikoyalarida yaratilgan obrazlar biri - birini takrorlamaydigan, o’ziga xos xarakter egalaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

- 1.Каримов И.. А. Ўзбекистон XX аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Тошкент: “Ўзбекистон”, 1997, 188-190-бетлар.
- 2.Каримов И..А. Халқимизнинг йўли мустақиллик, озодлик ва туб ислохотлар йўлидир. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996, 19-25-бетлар.
- 3.Каримов И..А. Адолатли жамият сари. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 1998, 13-20-бетлар.
- 4.Каримов И..А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Тошкент: “Шарқ” НМК, 1998, 9-17-бетлар.
- 5.Каримов И..А. Баркамол авлод орзуси. -Тошкент: “Шарқ” НМК, 1999, 40-43-бетлар.
- 6.Каримов И..А. Озод ва обод Ватан, эркир ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2000, 19-22-бетлар.
- 7.Karimov I..A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. -Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008, 132-140-betlar.
- 8.Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. -Toshkent: “O'zbekiston”, 2009. 19-22-betlar.
9. Karimov I..A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: “O'zbekiston”, 2009.- 56-bet

10.Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2010.- 50- bet.

11.Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilliga bag'ishlangan tantanali marosimdagi so'zi. "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2010- yil 1- sentabr.

12.Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish– taraqqiyotimizning muhim omilidir. "Ishonch" gazetasi, 2010 -yil 8 - dekabr.

13.Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади. "Халқ сўзи" газетаси, 2011- йил 22- январ.

14.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-Toshkent: "O'zbekiston", 2001, 18-32-betlar.

15.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-Toshkent: "O'zbekiston", 1997, 45-53-betlar.

16.G'oya va mafkura. -Toshkent: "Ijod dunyosi", 2002, 35-42-betlar.

II.Asosiy adabiyotlar:

17.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Toshkent. "Fan nashriyoti"

18.Sharofiddinov O. Ma'naviyat yo'llarida. –Toshkent: "Ma'naviyat".2001, 33-40-betlar.

19.Adabiyotshunoslik atamaları lug'ati.–Toshkent: "Akademnashr".2010.

20.Мирвалиев.С. Ўзбек адиблари. –Тошкент:"Ёзувчи", 2000.

21. Аристотел. Поэтика. –Тошкент, 1980.
22. И. Ҳаққул. Абдиёт фарзандлари. –Тошкент: Ўзбекистон ЛКЮ МҚ “Ёш гвардия”, 1990.
23. Quronov.D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent:”Fan”, 2007.
8. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - Andijon: hayot, 2002. - T., 2004.
24. Quronov D. Cho’lpon nasri poetikasi. - T.: Sharq, 2004.
25. Quronov D. Adabiy jarayonda mom sindromi. - T.: Akademnashr, 2010.
26. Quronov. D. Mutolaa va idrok mashqlari. - T.: Akademnashr , 2013.
27. Quronov D. Adabiyot nadir. - T.: Zarqalam, 2004.
28. Quronov D. G’arb adabiy – tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. - T.: Fan, 2008.
29. Қўчқоров Р. Истеъдод қадри. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1989.
30. Қўчқоров Р. Мен билан мунозара қилсангиз... - Т.: Маънавият, 1998.
31. Қўшжонов М. Ижод масулияти. - Т.: Адабиёт ва санъат, 1981.
32. Қўшжонов М. Ижод сабоқлари. - Т.: Ёш гвардия, 1973.
33. Ғафуров И. Дил эркинлиги. - Т.: Маънавият, 1998.
34. G’afurov I. hayo - xaloskor. - T.:Sharq, 2006.
20. O’zbek adabiy tahqidi tarixi. - T.:Tafakkur, 2012.
35. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. - T.: Yangi asr avlodi, 2002.
36. ”Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 1994 йил, 1-2-сон, 2-6-бетлар; 1997 йил, 1-сон, 2-7-бетлар; 2005 йил, 2-сон, 86-бетлар; 2006-йил, 4-сон, 10-13-бетлар.
37. XX o’zbek hikoyasi antologiyasi/ – T. : “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2009.

III. Badiiy adabiyotlar:

38. Cho’lpon, Asarlar. 4 jildlik. 2 – jild.
39. Cho’lpon, Asarlar. 4 jildlik. 1 – jild.

Qo'shimcha adabiyotlar:

40. www.ziyouz.com

41.uzbek.html

42.adabiyot.html

43.adabiyot.myusuf